Metodbirlashma rahbarlariga ustama beriladimi?

Metodbirlashma rahbarlariga 5 foiz qo'shimcha ustama berilishi haqida rasman qaror qabul qilinmaganligi sabab chalkashliklar tugamayapti.

2-bet

O'quvchi hunarmand bo'lmoqchi, o'qituvchida nima ayb?

Maktab o'quvchilarining barchasi oliy o'quv yurtiga kirishni emas, hunarmandchilik qilishni istasa, yoki o'qish xarajatlariga imkoniyati bo'lmasa, bu nima uchun o'qituvchi faoliyatiga, oylik maoshiga ta'sir qilishi kerak?

4-bet

Tafakkur – ko'ngil kaliti

"Tafakkur" jurnali hazrat Navoiyning:

...Har ishki, qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod –

satrlarini o'ziga shior qilib olgan. Xo'sh, bu misralar shoirning qaysi asaridan olingan? Bu so'zlar qanday voqeiy-badiiy munosabat bilan qog'ozga tushgan?

5-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 3-sentabr, chorshanba № 32 (9305)

Xalq ziyolilari gazetasi

Varaxsha kengliklarida

12-bet

"Tarbiya"ning qaytishi

Insoniyat taraqqiyotida avloddan-avlodga o'tib, izchil rivojlanishni ta'minlaydigan xazinalar ko'p: kelajakka meros qoladigan uy-joy, mol-mulk va, albatta, tarbiya. Ularning dastlabki ikkisi yana boshqa shunday boyliklar bilan qo'shilib, tiriklikning moddiy asosini ta'minlasa, tarbiya bu borada yashashning ma'naviy asosi bo'lib xizmat qiladi. Tilimizdagi "tarbiya" so'zi arabchadagi "robbi" — yaratuvchi so'zi bilan bir o'zakdan.

Qolaversa, tarbiyani ota-onadan farzandga qoladigan eng katta boylik ham deb baholaydilar (Maqol: "Olmaning tagiga olma tushadi"). Dunyoga endi kelgan zurriyot ham yashashning ilk saboqlarini ota-onadan oladi (Maqol: "Qush uyasida ko'rganini qiladi"). Farzand voyaga yetib, jamoaga qo'shilar ekan, odamzod osmonida yangi bir yulduz paydo bo'lgandek tuyuladi, atrofdagi hamma unga qaraydi, u doim jamoaning nazarida (Maqol: "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona"). Jamiyatning bir teng huquqli a'zosi ana shunday so'qmoqlardan o'tib, insoniyat olamiga qo'shiladi. Bu hol go'zal turmush tarzimizda ajib bir tarzda mazmun kasb etgan: bir farzand bilan butun jamoaning ezgu orzulari ulg'ayib boradi, undan (zurriyotdan) dunyoning koriga yaraydigan bir bunyodkor paydo bo'lishini istaydi. Xalqimizning azaliy turmush tarzi ana shunday mezonga asoslangan, yaxshidan hamma baravar quvonadi. Aksincha, yomondan hamma birdek aziyat chekadi.

3-bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

2020-2021-o'quv yilini boshlash arafasidamiz. Avvallari bu kunni quvonch va hayajon bilan qarshi olardik.... Hozir meni bir narsa o'ylantiryapti. Ko'ha-ko'yda faqat jarimaga tushib qolishdangina cho'chib niqob taqqan ota-onaning farzandi dars tugaguncha sabr bilan niqobda o'tirarmikan? Sinfda o'quvchi soni 30–36 nafar, o'quv xonalari sinflar sonigagina yetarli bo'lgan bizning maktabimiz kabi boshqa maktablarda masofani qanday saqlarkanmiz? Bunda o'quvchi va o'quvchining hayoti, sog'ligi xavf ostida qolmaydimi?

M. AHMADJONOVA

Bugun maktabdan qizimning darsliklarini olib keldik. Tayyor bozordan olgan selofan muqovalarni kitoblarga kiygizib, maktabga tayyorgarlik ko'ra boshladik. Bolalikda kitoblarimizni olib kelgan kun biz uchun bayram edi. Eski matolardan o'z qo'llarimiz bilan jild tikardik, to'g'ri kelib qolsa yangi kitob o'qiganmiz. Eski darslik kitoblarni o'qib katta bo'ldik. Hozir-chi, har 3 yilda yangi darslik chiqariladi, ba'zida oldingi nashr bilan keyingi nashr bir-birini inkor qiladi. "Bisyor bo'lsa agar bol ham beqadr", deganlaridek, kitoblarning nashrlarini ko'paytirganimiz uchun ham beqadr bo'lib bormayaptimikan?!

Sanobar BERDIYEVA

O'qituvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bepul degan xabarni o'qib xursand bo'ldim. Soddamanda, darrov poliklinikaga boribman (aslida unday gap yo'q ekan). Xodimlar yigirma ikki ming so'mni kassaga to'lash uchun qog'oz berishdi. Xabarning to'g'riligini aniqlamasdan turib, shoshib ish qilganimni angladim. Kimlar uchundir bu mablag' arzimasdek tuyulishi mumkin, lekin men kabi farzandlarini yolg'iz boqib, tarbiyalab kelayotgan ayol uchun shunchaki pul emas. Hech bo'lmaganda kam ta'minlangan o'qituvchilarga tibbiy ko'rik uchun imtiyoz berilishini juda xohlardim!

O'QITUVCHI

Shu yaqin yillarda ta'lim sohasida o'zgarishlar talaygina bo'ldi. Avvalo, pedagog xodimlar oylik maoshlarining oshirilishi, ortiqcha yuritilayotgan hujjatlarining kamaytirilishi, o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi"ning joriy etilishi ancha yillardan buyon kutilgan yangilik bo'ldi.

Metodbirlashma rahbarlariga ustama beriladimi?

Pedagoglardan o'z mutaxassisligi bo'yicha test olinishi ham ayni karantin payti uyda o'tirib o'z ustida yanada ko'proq ishlashga imkoniyat bo'ldi. Bularning barchasi biz o'qituvchilar uchun quvonarli, albatta. Ammo kundan-kun yangi qarorlarning chiqishi to'xtamasligi o'qituvchilarni chalg'itib qo'yayapti. Masalan, pedagog xodimlarga qo'shimcha ustama berish haqidagi 275-qaror o'tgan yili oktabr oyida bekor qilindi va ustama berishda o'zgartirishlar kiritilib, 823-qaror chiqarildi. Shu qarordan so'ng yangi o'quv yili boshlangan bo'lsa-da, darhol ba'zi maktablarda o'qituvchilarning 275-qaror bilan oladigan ustama hujjatlari bekor qilinib, 823-qarorga asosan yangidan ko'rib chiqilib, yangi hujjat tayyorlandi. Yangi qaror bilan ball yig'a olmagan xodimlar ustamasi qirqildi. Turli noroziliklardan so'ng, 275-qaror qayta tiklandi va yangi qaror 2020-yil sentabrdan amal qilishi aytildi.

Iyun oylarida ham maktablarda o'quv yili tugagach, yangi o'quv yili uchun 823-qaror bo'yicha o'qituvchilarning ishlari ko'rib chiqilib, to'plagan ballari bo'yicha hujjatlar tayyorlandi. Ammo bu qarorning ba'zi bandlaridan norozilklar kelib chiqmoqda. Ayniqsa, metodbirlashma rahbarlariga 5 foiz qo'shimcha ustama berilishi haqida rasman qaror qabul qilinmaganligi sabab chalkashliklar tugamayapti. Ya'ni, ustama barcha metodbirlashma rahbarlariga berilishi yoki rahbarlarning ish faoliyati ko'rib chiqilib, faqatgina yaxshi ish olib borganlarga berilishi haqida hech qanday aniq ma'lumot berilmadi. Vaholanki, hozir o'qituvchilar yangi o'quv yilini boshlash va metodbirlashma rahbarlarini tayinlash arafasida. Biz pedagoglar mutasaddilardan shu masala yuzasidan aniq to'xtamdagi javobni kutib qolamiz.

Shoira BADALOVA,
Kogon shahridagi
7-maktab o'qituvchisi

Maktab repetitorlikdan o'zishi mumkin, agar...

Hali-hanuz joylardagi mahalliy hokimlik vakillarining maktablar faoliyatiga asossiz va noqonuniy aralashuvlari yuqoriligicha qolmoqda. Yoki joylardagi mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari doimiy tarzda o'zlarining "reja"larini bajarish uchun 45 daqiqalik dars jarayonini buzgan holda mantiqsiz fotosessiyalarni uyushtirib, o'qituvchi va o'quvchilarni asosiy vazifalaridan chalg'itishmoqda.

Shu yilning 15-iyulida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz: "Avvallari o'qituvchilar 3 oy paxta, 15 kun pilla bilan ovora bo'lardi", deb ta'kidladi. So'nggi uch yilda bu tizimning bekor qilingani biz, o'qituvchilar "Bizning ko'ksimizga ham shamol tegarkan-ku!" deyishimizga asos bo'la oladi. Biroq ba'zi chekka hududlarda bu holatning "innovatsion" ko'rinishlari saqlanib qolmoqda. Ya'ni, shanba (asosan dars soati bo'lmagan) va yakshanbada o'qituvchilar paxta dalalariga chiqishi yoki o'z hisobidan terimchi yollashi, ayrim maktablarda esa o'qituvchilar tomonidan pilla uchun pul yig'ishlar hali-hanuz mavjud.

O'quv yili davomida tuman va viloyat XTB yoki yanada yuqori tashkilotlar xodimlari maktablarga kelib, o'qituvchilarning ruhiyatini ko'tarib, mavjud muammolarni o'rganib, ularni bartaraf etish o'rniga toki kamchiliklar topilmagunicha necha kunlab tekshiruvlarni amalga oshiradi. Agar hech qanaqa kamchilik topilmasa, navbat "komissiya"larning maktablardagi asosiy quroli hisoblanmish "davomat"ga keladi. Ota-onalarning aybi yoki e'tiborsizligi sababli maktabga kechikib kelgan yoki umuman kelmagan o'quvchilar uchun sinf rahbari va fan o'qituvchilari javob berishadi. Shuni unutmaylikki, maktablarda tekshiruvlar bo'layotgan kunlarda o'tilayotgan darslarning sifati buziladi! Shuningdek, biz o'qituvchilar uchun eng katta va tobora keng ildiz otib borayotgan masala bu — ota-onalarning o'qituvchilar bilan munosabati masalasidir. Hozirgi kunda deyarli 80–90 foiz ota-onalar haftada bir marta tugul, oyda bir marta ham o'z ixtiyori bilan farzandining ertasini o'ylab, ularning fanlarni o'zlashtirishi, tarbiyasi va kelajagini maslahatlashish maqsadida maktabga kelmaydi. Achinarlisi shundaki, agarda farzandining aybi bilan maktabda biror tartibsizlik bo'lsa, 20 daqiqaga qolmay, hozir-u nozir bo'lishadi. Maktab ma'muriyati va fan o'qituvchilari ustidan yuqori davlat organlariga shikoyat qiladi. Ko'pgina hollarda ommaviy axborot vositalari va millionlab foydalanuvchiga ega turli ijtimoiy tarmoqlar ham o'qituvchining bilib-bilmay bosgan birgina noto'g'ri qadamini ovoza qilish bilan vaziyatni yanada murakkablashtiradi.

Agar faqatgina qog'ozda va qonunda saqlanib qolgan, amalda esa umuman bajarilmayotgan "fanlarni o'zlashtirmagan, tarbiyasi og'ir..." o'quvchilarni sinfdan sinfga qoldirish tizimi qayta jonlanadigan bo'lsa, yuqori sinflarda har yili har bir sinfdan o'rtacha 20–25 foiz (bitiruvchi sinflarda esa bu ko'rsatkich undan-da yuqori) o'quvchilar sinfdan sinfga qoldirilishi kerak. Agar fan o'qituvchisining vijdoni qiynalib, bu ishni amalga oshiradigan bo'lsa, boshqa birorta ham maktablarda bunaqa holat kuzatilmayotgani ro'kach qilinib, maktab ma'muriyati yoki boshqa mas'ul tashkilotlar tomonidan mazkur o'qituvchi qistovga olinib, "o'qituvchining o'zi aybdor, fanini, mavzularni o'quvchilarga yetkazib bera olmagan" bahonasi ostida unga chora ko'riladi. Adolati o'ziga jabr bo'lishini anglagani uchun ham o'qituvchilar ko'pgina adolatsizliklarga ko'z yumishga majbur bo'ladi.

Hozirgi kunda abituriyentlarning 90–95 foizi nodavlat ta'lim muassasalarida repetitor o'qituvchilar tomonidan belgilangan qolip asosida (faqatgina test yechishga) tayyorlanib, oliy o'quv yurtlariga kirishmoqda. Chunki nodavlat ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar har xil keraksiz qog'ozbozlik, tadbirbozlik bilan shug'ullanishmaydi. Ularga kunora turli davlat tashkilotlaridan "komissiyalar" (tekshiruvlar) kelmaydi. Kundan kunga ko'payib borayotgan o'quv markazlarida ish oson va sifatli bo'lib ko'rinishi mumkin, biroq nodavlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarga ta'lim bilan bir qatorda eng asosiysi hisoblanadigan tarbiya, vatanparvarlik ruhi, o'zaro ijtimoiy munosabatlar va erkin ijodiy yondashuv o'rgatilmaydi.

Agar ota-onalar o'qituvchilarni hurmat qilib, sinf rahbari va fan o'qituvchilari bilan doimo farzandlarining kelajagi uchun aloqada bo'lib, birgalikda harakat qilishsa, nodavlat ta'lim muassasalariga to'layotgan qanchadan-qancha pullari o'z cho'ntaklarida qoladi. Natijada yuqoridagi raqamlar tamomila o'zgarib, maktab ta'lim-tarbiyasini olgan yoshlargina talabalik maqomiga erishadi.

Zavqibek MAHMUDOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti,Yuqorichirchiq tumanidagi
34-maktab o'qituvchisi

O'qituvchi minbari

Nemis va fransuz tillari chet tili emasmi?!

Buyuk mutafakkirlarning hayoti va ijodini o'rganib, ularning bilim bisotida o'z ona tilidan tashqari bir nechta xorijiy tilni bilganiga ham guvoh bo'lganmiz. Universitetda o'qib yurganimizda bir ustozimiz har safar "Bir til bilgan bir odam. Ikki til bilgan bir tanada esa ikki odam yashaydi", der edi.

O'zim nemis tili fani o'qituvchisiman. Shu fanni tanlaganimdan hech qachon afsuslanmaganman. Chet tilini o'rganish davomida, avvalambor, o'z ona tilimni puxta o'rganishga erishdim deb hisoblayman. Biz o'qigan yillari ko'p darsliklar rus tilida yozilgani tufayli bu tilni ham o'rganishga to'g'ri kelgan. Miyamizda ajoyib jarayon kechardi: avval o'zbek tilida o'ylardik, fikrimizni rus tiliga o'girib olardik va oxirida nemis tiliga tarjima qilardik.

Mamlakatimizda chet tillarni o'rganish borasida yangi bosqich 2012-yilda boshlandi. O'sha yilning oxirida chet tillarni o'qitishni tubdan isloh qilishni ko'zga tutgan Prezident qarori qabul qilindi. Bu qarorning asosiy maqsadi chet tillarning o'qitilishini yanada takomillashtirish edi. Biroq qaror ijrosi to'liq ingliz tilining o'qitilishiga qaratildi yoki aksariyat ijrochilar shu yo'nalishda ketishni to'g'ri deb bilishdi. Amalda teng kuchli bo'lgan boshqa ikki chet tili: nemis va fransuz tillari "kun tartibidan tushirildi". Ochiqchasiga maktab direktorlaridan tortib, viloyat xalq ta'limi boshqarmalari rahbarlarigacha "Chet tili bu — ingliz tili" deb yoppasiga chet tillar borasida sun'iy "inglizlashtirish" jarayonini boshlab berishdi. Nemis va fransuz tili o'qituvchilari qayta tayyorlov kurslarida ingliz tili faniga o'qitila boshlandi. Televideniye targ'ibotini aytmasak ham bo'laveradi. Ingliz tilini bilsagina, hayot yo'llari ravon bo'lishini tashviqot-targ'ibot qiluvchi ijtimoiy roliklar odamlarning miyasidan "chet tili" degan so'zni o'chirayozdi. Barchaning tili va dilidan buning o'rniga "ingliz tili" degan so'z birikmasi muqim joy egalladi. Falonchi maktabda nemis tilidan dars beraman deyilsa, "Iye, hali ham bu til o'rgatiladimi?", degan savollar berila boshlandi. Uning fikrini o'zgartirish uchun soatlab nemis tilining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida ma'ruza qilishga to'g'ri kelib qoldi.

2019-yil 21-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining 701- "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Matbuotda qarorning nomini o'qigan nemis va fransuz tili o'qituvchisi qalbida bexosdan "Eh, bo'lar ekanku, bizning ham ko'kragimizga shabada tegib, emin-erkin ishlaydigan bo'ldik", degan fikr uyg'ondi. Qaror matnini o'qiganda esa, sal erta xursand bo'lganini tushunishdi. Yana bir bor dilida umidsizlik chuqurroq ildiz otdi. Salkam 10 ming maktab hisobiga respublika bo'ylab faqatgina 10 ta maktabda nemis tili, 6 ta maktabda fransuz, qolgan 18 maktabda ispan, yapon, xitoy va koreys tillari chuqurlashtirib o'qitilishi viloyatlar(ular ichida tumanlar) kesimida taqsimlanib qo'yilgan. Va eng muhimi, bu fanlar faqatgina ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarida o'qitilishi belgilab qo'yildi.

Ajoyib yechim! O'zi shundoq ham ixtisoslashtirilgan maktablarda ikkinchi chet tili sifatida yuqorida zikr etilgan tillar o'qitilardi. Bu o'sha chet tillardan mavjud mutaxassislarga bog'liq, xolos. Qolgan uch mingdan oshiq nemis tili o'qituvchisi-chi? Ular nima qiladi? 5-6 soat darsga ishlab yurgan nemis tili o'qituvchilaridan Vazirlar Mahkamasi va Xalq ta'limi vazirligining xabari bormi? Mana ikki yildirki, nemis tili xorijiy til sifatida o'qitiladigan fakultetlarga qabul kvotalari deyarli ikki barobar oshirildi. Ularning bitiruvchilari qayerda faoliyat yuritishadi yoki dars berishadi? Yoki ular "innovatsion yechim" hisoblangan ingliz tiliga qayta tayyorlov kurslarida qaytadan o'qitiladimi? Maktablarda nemis tili chet tili sifatida boshlang'ich sinflardan o'qitilmasa, maktab rahbari va ota-onalar tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lsa, unda bu til bo'yicha universitetlarda mutaxassis tayyorlashdan maqsad nima? Men nemis tili o'qituvchisi sifatida o'zimni ta'lim tizimida ikki xil islohot formati orasida his qilaman. Fanimni o'qitish borasida, bir qarasang, umid tug'iladi, bir necha kundan so'ng u so'nadi. Ishxonada direktorning bot-bot ingliz tiliga qayta tayyorlovdan o'tib olishga da'vati, mahallada ota-onalarning nemis tili o'rniga ingliz tilini o'tsam, yaxshi bo'lishi haqidagi gaplari shunday his uyg'otadi. Meni qiynayotgan masala bu — Xalq ta'limi vazirligining chet tillar borasida olib borayotgan siyosatidir. Oxirgi yetti yilda vazirlikning bu boradagi konkret pozitsiyasini bilmayapmiz.

701-qarorga qaytadigan bo'lsam, bu qaror, fikrimcha, yuqori idoralarga minglab murojaat yo'llagan nemis va fransuz tillari o'qituvchilarini "ovutish" uchun qabul qilingandek go'yo. Shaxsan men Vazirlar Mahkamasi va Xalq ta'limi vazirligidan chet tillarni o'qitish borasida oxirgi yillarda vujudga kelgan vaziyatga oydinlik kiritib, bu borada kelajak "yo'l xaritasi"ni yoritib beruvchi, yillar davomida o'z yechimini topolmayotgan masalaga uzil-kesil nuqta qo'yuvchi qarorni ishlab chiqishlarini kutib qolaman.

Alisher MADRIZAYEV,
Oqqo'rg'on tumanidagi
30-maktabning
nemis tili fani o'qituvchisi

"Tarbiya"ning qaytishi

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Bunday munosabat bizda tarbiyaning ijtimoiy qiyofasini tayin etadi. Demak, tarbiya hammaning har kuni qiladigan ishi. Azaldan turmush tarzimizda tarbiyaga qattiq amal qilingan, dasturxon atrofida, o'qish, mehnat jarayonlarida, ko'cha-ko'yda yurish-turishda kattalar muttasil yoshlarga tanbeh borib borishlari odat tusiga kirgan, shundan bolalar ham o'ziga hushyor, atrof-tevarakka tarbiyali munosabatda bo'lishga harakat qilib o'sishgan. Keksalarga ro'baro' bo'lish xuddi qattiqqo'l ustozga imtihon topshirgandek mas'uliyatli bo'lgan, shundan hadeb ularga duch kelinavermagan, agar kattalar gaplashib turgan bo'lsa, boshqa ko'chadan aylanib o'tilgan. Tarbiyaning yuki shu darajada og'ir bo'lgan (hozir ham shunday tartiblar amal qiladigan qishloqlar juda ko'p). Tarbiyaga jiddiy e'tibor berilganidan ta'lim ham tarbiyaning bir bo'lagi deb qaralgan, ilm o'rganish, aslida, tarbiyani ilmiy o'rganish usuli bo'lgan. Tarbiyali odamning bir fazilati uning ilmli ekani ham hisoblangan.

Afsuski, keyingi asrlarda tarbiya tor oilaviy masala sifatida cheklanib, ilm – ta'lim yetakchi o'ringa chiqdi. Kishi faoliyatiga ilmiga qarab baho beriladigan bo'ldi va bu bahoning mezonlari ishlab chiqilib, ijtimoiy hayotda majburiy qilib qo'yildi. Ilm hamma yo'llar bilan rag'batlantirildi, o'qish-o'qitish muassasalarida ta'lim yo'nalishiga urg'u berildi, ilmiy unvonlar joriy qilindi: fan nomzodi, doktori, professor, akademik... Bu holning sababi – milliy qadriyatlarga o't ochilgan va insonga katta mexanizmning bir vinti deb qaralgan tuzumda yaratuvchining kimligi emas, uning mehnat mahsuli lozim edi (Maqol: "Taka bo'lsin – sut bersin"). Tarbiya esa tomiriga suv yetmagan daraxtdek qurib boraverdi. Ana shunday bir tomonlama yondashuv tufayli odamzod "oqibatda, ilm-u urfon-(ta'lim)da eng baland nuqtaga — apogeyga yetdi. Dunyoning bundan keyingi taqdirini esa TARBIYA hal qiladi" (2009-yilda yozilgan "Janob" Tarbiya" maqolasi shu so'zlar bilan yakunlangan). Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ilm tufayli odamzod aqli butun galaktikani kezib chiqdi, odamning shisha naychadagi namunasi — klon yaratildi, viruslardan ajal quroli sifatida foydalanish mumkin bo'ldi va hokazo. Ma'naviyat esa tubanlashib, bir jinsli nikoh va boshqa ko'rguliklargacha borildi. Ikki oyoqli xilqat ba'zi qiliqlari bilan to'rt oyoqli hayvonni ham ortda qoldiradigan bo'ldi. Demak, hechdan ko'ra kech, deganlaridek, vaziyatni o'nglash uchun keskin choralar ko'rish lozim bo'lib qoldi. Ana shunday sharoitda mamlakatimizda zamon so'roqlariga hozirjavoblik bilan Tarbiya darslarining joriy qilinishi ayni ko'ngildagi ish hisoblanadi.

Tarbiya har lahzada kerak bo'ladigan amal. Gavjum shahar transportiga chiqib olgan odam shundoq eshikning oldida turib qoladi, yo'lovchilar uni turtib, u yoq-bu yoqqa o'tadilar, biroq u bir qadam ichkariga kirishni, chunki bu joy bo'sh, fahmlay olmaydi. Noz-ne'mat to'la dasturxon atrofida o'tirganda tanovul qilishni nimadan, qanday boshlash lozim – hamma bilavermaydi. Qachon qo'l olib ko'rishiladi, qachon bosh irg'ab salomlashiladi – va hokazo millionta mayda ikir-chikirlar. Ularning odobini bilmay, ko'pga ergashib ham yuraverish mumkin, lekin uzukni barmoqqa, bilaguzukni qo'lga taqish madaniyat hisoblanadi. Ko'p takrorlanadigan MADANIYAT degan katta boylik ana shunday mayda unsurlardan tashkil topadi. Madaniyat joriy bo'lgan tuzum madaniyatli hisoblanadi va unda g'ayriinsoniy qiliqlarga o'rin bo'lmaydi – tariximiz ana shunday jannatoro davrlarni ko'rgan. U paytda iqtisodiyot, ilm-fan, san'at yuksalgan, bu yuksalishni madaniyat ta'minlagan.

Ko'p asrlik tajriba va zakiy olimlarning sa'y-harakati bilan tarbiyaga doir ulkan ilm shakllangan. Hozirgi axborot asrida ana shu ilmdan xabardor bo'lmay, chin ma'nodagi komil inson bo'lish mumkin emas (bexabar bo'lsa, umri qiyinchilikda o'tadi xolos). Bu ilmga kirishishdan oldin bir aniq holni e'tirof etish lozim: ijtimoiy borliqda paydo bo'lgan zurriyot ilk tarbiyani ota-onasidan oladi! Hatto tarbiya unsurlarini irsiy ham deyishadi (Maqol: "Qazisan – qartasan, bir kun aslingga tortasan"). Tarbiyaning biologik genlardan o'tish hodisasidan tashqari tarbiyada homilaning qanday luqma (halol yo harom) bilan ulg'aygani asosiy o'rin oladiki, hatto tarbiyani moddiy hodisa, deyish ham mumkin. Shunday ekan, halolidan buyursin, "harom luqma bilan ulg'aygan bola do'zaxga o'tin bo'lishdan boshqasiga yaramaydi" (Hadisdan). Ha, insoniyat dunyosining talablari shafqatsiz, bitta yaxshi insonning dunyoda qoyim bo'lishi uchun qancha shartlar lozim – shuning uchun atrofimizda yaxshi odamlar kam.

Shunday mulohazalardan kelib chiqib, tarbiyani ichki (botiniy; fitriy) va tashqi (zohiriy; kasbiy) yo'nalishlarga ajratadilar. Professor Abdurauf Fitrat 1914-yilda yozilgan "Oila" risolasi(kitob 1998-yili "Ma'naviyat" nashriyotida bosilgan)ning ikkinchi qismida farzand tarbiyasi masalasiga batafsil to'xtaladi (risolaning birinchi qismi uylanish zarurati va mas'uliyati masalalariga bag'ishlangan) va olim tarbiyani uch qismdan iborat deb hisoblaydi: 1) Badan tarbiyasi (ovqatlanish, uyqu, poklik, harakat). 2) Aqliy tarbiya. Tashqi ma'lumot manbalari (ko'z, quloq, til, burun, teri) orqali; ichki ma'lumot manbalari (his, aql, diqqat, idrok, xotira, muhokama) orqali. 3) Axloqiy tarbiya. Fe'l (tasavvur, muhokama, solishtirish, qaror, ijro); mayllar (shaxsiy, ijtimoiy, oliy) orqali inson shaxsining yuksalishiga ta'sir etish. Har bir atama milliy sharoitdan kelib chiqib batafsil izohlanadi. Bunda jadid bobomizning islom dini arkonlari bilan birga Yevropa ilmidan ham chuqur xabardor ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu hol risolaning qimmatini oshiradi.

Risolada har bir tarbiya bo'g'iniga alohida ta'rif berilar ekan, ularni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish usullari dunyo ilmidagi qoidalar orqali tushuntiriladi. Albatta, bu qarashlar bir muallifning o'zi kashf qilgan, dunyoviy ilmlarga asoslangan va mavjud ijtimoiy hayot(XIX asr, Buxoro)dan olgan misollari asosidagi ilmiy xulosalari. Risola o'z paytida O'rta Osiyo ilmiy jamoatchiligi o'rtasida ancha mashhur bo'lgan. Fitrat domlaning qo'liga qalam tutqazgan masalalar esa xalqimiz madaniy saviyasining rivojlangan davlatlar, xususan, muallif o'zi ko'rgan yurtlar darajasidan pastligi bo'lgan. Bu hol turmushning barcha jabhasida, jumladan, ajralishlarda ham aks etayotgandi. Oilalar buzilishining ko'pligini "Biz turkistonliklar o'rtasida axloqiy fazilat va islomiy tarbiya joriy etilmagani va undan mahrum bo'lganimiz sababli" deb sharhlaydi. Bu masalaning juz'iy tomoni. Tarbiya shunchalik nochor yo'lga qo'yilganki, musulmon birodarlarimiz biron sohada kamolga yetishni o'ylamaydilar. Odamlarning loqaydligidan iztirob chekib, shunday yozadi Fitrat: "Bitta yahudiy savdogar qancha turkistonlik savdogarlarning ko'zini bog'lab qo'yadi yoki bir armani qancha buxorolik duradgorni qoyil qilib qo'yadi" deydi va shunday savol qo'yadi: "Nima sababdan?". Javob esa juda oddiy: "Chunki ular bilag'on: muhokama, mulohaza va tafakkur qiladiganlardir". Bizning mardumlar esa taqdirga tan berib, "chordona qurib o'tiraveradilar" (Bu holning shu kunlardagi ko'rinishi: masjidga yuguradilar va hamma narsani Xudoga tashlab, osmondan chalpak yog'ishini kutib o'tiraveradilar. Harakat yo'q yoki joiz emas). Ko'rinib turibdiki, bir asr oldin qalamga olingan muammolar bugun ham begona emas.

Olim bunday noxush holning sababini tarbiyaning naqadar ibtidoiyligida, deb biladi va o'z millatdoshlarini dunyo tajribasi, ilmidan bahramand etish uchun shu risolasini yaratadi. Ochig'i, bunday ilmiy va didaktik adabiyotlar yetarli, hayot esa yangi muammolarni ko'ndalang qo'yaveradi. Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi har qachongidan ham dolzarb. Masalaning nozikligi shundaki, axborot vositalari o'ta ko'p va ularni jilovlashning iloji yo'q. Shunday sharoitda shaxs tarbiyasi masalalarning masalasi bo'lib maydonga chiqayapti. Shaxs kamolotida tarbiyani idish, ta'limni unga quyiladigan suyuqlik, ma'lumotni esa suyuqlikning nimaligi: sharobmi, sharbatmi yoki oddiy suvmi — shunga qiyoslash mumkin. Yoxud tarbiya — libos, ta'lim — cho'ntakdagi pul. Xullas, bu borada qiyoslar ham, mulohazalar ham yetarli. Umuman, kuzatishlarimni tartibga solib va tarbiyaning dolzarbligi hamda ijtimoiy ahamiyati yuqoriligini aniq misollar bilan dalillab, bir maqola yozgandim va u "Tarbiyani yashirib bo'lmaydi" degan sarlavha bilan "Hurriyat" gazetasining 2010-yil 10-fevral sonida bosilgandi. Maqola yaxshi kutib olingan, mushtariylar ancha jo'yali fikrlarni izhor etishgandi. Keyin uni yana ham mukammallashtirdim va "Janob" Tarbiya" degan nom bilan "Umid manzili" ("O'zbekiston" nashriyoti, 2016-yil. 30–56-betlar) kitobimga kiritdim. Bu sa'y-harakatlardan maqsad — bir fuqaro, qolaversa, 10 yil maktabda o'qituvchilik qilgan ustoz sifatida Tarbiyaning inson hayotidagi muhim o'rnini ta'kidlash, shu bilan birga jamiyatda, o'qitish tizimida unga lozim darajada jiddiy ahamiyat berilishi shartligini uqtirish edi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida savod o'rgatish yoki ma'lumotli qilish deyarli har bir kishining shaxsiy ishi va muammosiga aylandi. Davr shu darajada taraqqiy etdiki, endilikda ilmli bo'lmay yashashning umuman iloji qolmadi. Shunday sharoitda bu masala keyingi qatorga o'tdi, deyish mumkin. Zotan, shaxsning kimligi, borliqqa munosabati, uning ichki olami asosiy o'ringa chiqdi. Fikrlar, manfaatlar kurashida kimning yutib chiqishi emas, qanday odamning (yoki g'oyaning) yutib chiqishi muhim bo'lib qoldi. Keyingi sa'y-harakatlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, unumdorlikni oshirish yoki mo'l-ko'l mahsulot yaratish emas, dunyoni shu boricha ushlab turishga qaratilmoqda: qurollanishning haddan oshib ketgani, ekologik va boshqa anomal fojialar endi taraqqiyot tezligini jilovlashni taqozo etmoqda. Ana shunday tahlikali sharoitda tarbiya masalasi, ya'ni insonning madaniyati masalasi yetakchi o'ringa chiqdi. Bu — haqiqat. Albatta, maktablarimizda joriy etiladigan Tarbiya darslari boy ma'naviy, tarixiy merosimizning eng nodir durdonalari asosida tuziladi va kelajak avlodimizning dunyo tamaddunida o'z o'rnini tayin etadigan kishilar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Hakim SATTORIY

Ayni paytda ta'lim sohasida shunaqangi ko'p qarorlar qabul qilinmoqdaki, ba'zilari bir-biriga mos kelmaydi, yoki biri ikkinchisini bekor qilib qo'yadi.

O'quvchi hunarmand bo'lmoqchi, o'qituvchida nima ayb?

So'nggi yillarda ta'lim tizimida juda ko'p ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu tizimga oid ko'plab qaror va farmonlar imzolanib, amaliyotga joriy etilmoqda. Ularga muvofiq bu sohada ishlovchi kadrlarning ishi birmuncha yengillashtirildi, keraksiz qog'ozbozliklarning oldi olindi, o'qituvchilar mavqeyi va ish haqi oshirildi. O'zbekiston xalqaro baholash dasturlarida qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Lekin ayni paytda ta'lim sohasida shunaqangi ko'p qarorlar qabul qilinmoqdaki, ba'zilari bir-biriga mos kelmaydi, yoki biri ikkinchisini bekor qilib qo'yadi. Ko'pchilik muhokamaga qo'yilgan qarorlar, takliflar qaysidir davlat ta'lim tizimini misol qilib ko'rsatish bilan boshlanadi. Lekin bu qanchalar to'g'ri, o'zimizga xos milliy ta'lim tizimini yaratish mumkin bo'lganda boshqanikini moslashtirib nima qilamiz?! Ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida dars soatlari qisqartirildi, buning oqibatida milliy til kamsitildi va bu bilan ko'plab ushbu sohada dars beruvchi pedagog kadrlar ishsiz qolish arafasida turibdi. Bu masala yuzasidan matbuotda va ijtimoiy tarmoqlarda asosli noroziliklar bildirildi, lekin bunga hali hamon biror chora ko'rilgani yo'q.

Ikkinchidan, hozir o'quvchi maktabda olishi kerak bo'lgan bilim va malakasiga qo'yilgan talablar bilan o'qituvchi ish faoliyatiga qo'yilgan talablar bir-biriga mos kelmay qolayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Ya'ni, bundan bir necha yil avval o'qituvchilarni baholashda ularning ijodkorligi, dars o'tish mahorati, jamoat ishlarida faolligiga qaralardi, ammo o'quvchi maktabdan keyingi bosqichda bir-biridan qiyin testlar bilan sinalib kelindi. Hozir ham shunday. O'qituvchi faoliyati faqat test bilan o'lchanadigan bo'lib qoldi. Bu holatda, demak, o'zgarish bo'ldi deb emas, o'rin almashdi deyishimiz mumkin. Ya'ni avval o'qituvchiga qo'yilgan talab bilan o'quvchiga qo'yilgan talabning o'rni almashdi xolos. Oxirgi xabarlarga qaraganda maktab o'qituvchilarining oylik maoshi, olinadigan ustama haqlar maktab bitiruvchilarining oliy o'quv yurtiga kirish ko'rsatkichlariga qarab belgilanadi. Bu qanchalar to'g'ri, axir maktab o'quvchilarining barchasi oliy o'quv yurtiga kirishni emas, hunarmandchilik qilishni istasa, yoki o'qish xarajatlariga imkoniyati bo'lmasa, bu nima uchun o'qituvchi faoliyatiga, oylik maoshiga ta'sir qilishi kerak? Maktabda olingan baholar, ko'rsatkichlar o'quvchi uchun muhim ahamiyat kasb etsa, qandaydir imtiyozlar bersa, oliy ta'lim imtihonlari maktab dasturiga to'la mos kelsa o'quvchiga ham, o'qituvchiga ham yaxshi bo'lardi.

Ra'no NURMETOVA,
Amudaryo tumanidagi
40-maktab o'qituvchisi

Fikr

Mantiq — fikrning mag'zi

Biror savol yoki muammoga duch kelganimizda chuqur o'ylashni boshlaymiz, bunda o'z-o'zidan miya ishga tushadi va aniq yechim izlaydi. Ko'pincha mantiqan to'g'ri bo'lgan javobni tanlaymiz. Aslida bunday mantiqiy fikrlash kishilarda qachon paydo bo'ladi yoki shakllanadi?

Olimlarning fikriga ko'ra, bu jarayon bolalikdan paydo bo'ladi. Mantiqshunos olim P.Y.Galperin shunday deydi: "Mantiqiy fikrlash insonda bosqichma-bosqich shakllanib rivojlanadi". V.A.Suxomlinskiy esa "Bolaning kognitiv faolligi, u olgan bilimlari chuqur, izchil va mazmunli bo'ladi", deydi. Demak, bolalarda miya faoliyatining yaxshi harakatlanishi, tez sur'atda qabul qilishi va xotirasiga joylashi maktabning boshlang'ich davriga to'g'ri keladi. Shu sababli ular mana shu bosqichda qiziquvchan va intiluvchan bo'lishadi va notanish "dunyoga" kirib qolgandek har bir narsani bilib olgisi va notanish savollarga javob topgisi kelaveradi. Buni ingliz tili fani misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, 1-sinf o'quvchilari lug'at boyligini oshirish maqsadida bir qancha so'zlarni yodlashadi. Kichik yoshdagi bolalarning eng sevimli mavzularidan biri bu —"Animals" ("Hayvonlar"). Ular bu mavzuda wolf(bo'ri), fox (tulki), zebra (zebra), elephant(fel), bear(ayiq), tiger((tiger), lion(sher) kabi ko'plab yovvoyi hayvonlarni o'rgana boshlashadi. Keyin esa bularni katta(-big), kichik(small), ijobiy (good) va salbiy (bad) guruhlarga ajratishadi. Aynan shu davrdan yosh bolalarda mantiqiy fikrlash jarayoni davom etadi.

Aytish mumkinki, o'zaro fikrlar qarama-qarshiligining vujudga kelishi mantiqiy hamda tanqidiy fikrlashning asosiy usullaridan biridir. Bunday fikrlash jarayoni asosan 2-sinf o'quvchilarida yanada takomillashadi. Masalan, ular sevib o'qiydigan ertaklarni oladigan bo'lsak darslikning "The world of fairy tales" qismidagi "Little Red Piding Hood" ("Qizil shapkacha") ertagida wolf(bo'ri) qahramoniga nisbatan bolalarda boshida havas hissi uyg'onadi. Uni kuchli, qo'rqmas deb tasavvur qilishadi. Ammo keyinchalik mantiqan fikr yuritib, uning salbiy qahramon ekanligini anglab olishadi. O'z-o'zidan "Agar men uning o'rnida bo'lganimda nima qilgan bo'lar edim?" degan tanqidiy fikr paydo bo'ladi. Bunday savollarga javob qidirganda bolalar tasavvur olami yanada kengayadi. Avvaliga yuzaki qaralgan savolga o'z-o'zidan jiddiy yondashuv boshlanadi. Bunda pedagog-o'qituvchilarning o'rni juda katta hisoblanadi. Ulardan bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish talab etiladi.

Yana misol tariqasida oladigan bo'lsak, ingliz tili fani darsliklarida "Daily Routine" ("Kundalik tartib") mavzulari doirasida bolalarga pedagoglar tomonidan to'g'ri tushuncha berilsa va fanga qiziqtirilsa, ularning mantiqiy fikrlash olami kengayadi. Masalan: "get up on time" ("vaqtida turmoq"), "to be late" ("kechikish"), "to be on time" ("vaqtida bo'lmoq") kabi so'z va so'z birikmalarini o'rgatganda ham ba'zan bolalarda qiyinchilik tug'iladi. Bilamizki, bolalar ertalab vaqtli uyg'onishni yoqtirishmaydi. Agar ularga bolalarcha yondashilib tushuntirilsa mantiqiy fikrlashga o'rgatiladi. "Men vaqtli uyg'onishim va darsga kech qolmasligim kerak. Aks holda baholarim do'stlarimga nisbatan pasayadi va men ulardan orqada qolaman" degan tushuncha paydo bo'ladi.

Nozima YO'LDOSHOVA,
Buxoro tumanidagi
1-maktab o'qituvchisi

"Onlayn maktab" yurtimiz pedagoglarining qanchalik fidoyi, o'z kasblariga mas'uliyat bilan yondashishlarini ko'rsatdi. O'qituvchilarning yangi qirralarini ochib berdi.

Pedagoglar hayotida onlayn maktab

Onlayn ta'lim jarayoni o'zini oqlay olayaptimi? Hamma ta'lim beruvchi yoki ta'lim oluvchilar unda faolmi? Yoshlar o'ziga yaratilgan imkoniyatlardan to'g'ri, unumli foydalanyaptimi? Bu faoliyatga ota-onalarning munosabati, ko'magi qanday?

Albatta, bu savollarning javobi u qadar ko'nglimizdagidek bo'lmasligi mumkin. Sinfxonada dars berishga odatlangan ustozlar uchun masofadan turib o'quvchilar bilan ishlash oson kechmadi, albatta.

Qiyinchiliklar ko'proq nimalarda ko'zga yaqqol tashlandi? Avvalo, bu jarayonda ishlash uchun ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchilarning hammasi ham kompyuter va internetda ishlashga to'laqonli tayyor emasdi. Hatto ba'zi ustozlar telegramni qanday ishlatishni mazkur jarayonda majburlikdan o'rgandilar. Ayrim joylarda internet tezligining yaxshi emasligi ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymadi. Shuningdek, hamma pedagoglar ham o'z ishiga nisbatan mas'uliyatli, talabchan, fidoyi deya olmaymiz. Shu bilan birga ota-onalarimizning barchasi ham bu ta'lim jarayonida farzandlarining ilm olishini to'g'ri qabul qildi, tushunib yetdi, ko'maklashdi, deb ham bo'lmaydi. O'ylab ko'ring, oilada bitta-ikkita telefon bor, xolos. Uni ham ota-ona yoki oilaning katta farzandlari ishlatadi. Maktabda o'qiyotgan bolalari kamida 2-3 nafar. Qisqasi, hamma oilalarda ham bolalar uchun masofaviy ta'lim olishga sharoit to'liq yaratildi, deb bo'lmaydi. O'z faoliyatimda bunga amin bo'ldim.

Mana shu muammolar sabab ba'zi o'quvchilar o'zlaridagi imkoniyatdan kelib chiqib bog'lanishar, shu bois, biz ustozlar kunning istalgan payti onlayn bo'lib turishimizga, o'quvchilar bilan alohida-alohida ishlashimizga to'g'ri kelardi. Biroq buning aksi o'laroq, o'z farzandlarining ilm olishiga astoydil harakat qilgan, ularga jon-dildan ko'maklashgan ota-onalar ham yo'q emas. Ayniqsa, bu bizning jamoa faoliyatida ko'proq ko'zga tashlandi.

Ogahiy ijod maktabi o'qituvchilar jamoasi pandemiya sharoitida aslo ortga chekinmadi. Ayrim qiyinchiliklarga qaramasdan o'quvchilar bilan astoydil shug'ullanib, o'z bilim va mahoratlarini ishga soldilar. Videodarslar, audiodarslar, prezentatsiyalardan unumli foydalanildi. Qiziqarli viktorinalar, "O'yla, izla top!" rukni ostida musobaqalar, savol-javoblar, fanlar bo'yicha test tanlovlari orqali o'quvchilarning faolligi oshirildi. Bu jarayon ustozlarda ham ijodkorlik hissi yanada oshishiga, ba'zi o'quvchi hamda o'qituvchilarimizning ochilmagan qirralarini kashf etishimizga turtki berdi. Ular she'riyat, nasr, publitsistika, ifodali badiiy o'qish, rasm chizish, shuningdek, texnologiya, kompyuter texnologiyalari sohalarida o'zlarining ijodiy ishlarini namoyon eta olishdi.

Yozgi ta'til payti ham jamoa o'z faoliyatini to'xtatmadi. "Har haftada bir kitob" loyihasi doirasida o'quvchilar orasida kitobxonlikni keng targ'ib etish orqali yaxshi natijalar qo'lga kiritilmoqda. Shuningdek, ijod maktabida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyat bo'limi hamda Urganch davlat universiteti bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilgan "Mahorat dars"lari yozgi ta'til va pandemiya sharoitiga qaramay o'z faoliyatini to'xtatgani yo'q. Har bir fan bo'yicha tashkil etilgan to'garaklar ham o'z ishini muntazam davom ettirgan holda, fan doirasida o'quvchilarning olgan bilimlari yanada mustahkamlanishiga erishilmoqda.

Muhabbat JUMANIYOZOVA,
Ogahiy nomidagi ijod maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Bir bayt sharhi

Tafakkur — ko'ngil kaliti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-aprelda qabul qilingan farmoni bilan hozirgi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va uning muassisligida chiqadigan "Tafakkur" ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali tashkil etilgan (Bu nashr 1999-yildan buyon Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi muassisligida chop etilyapti).

Jurnalga shior qilib olingan:

...Har ishki, qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod, —

satrlari millatimizning ma'naviy piri hisoblanmish hazrat Alisher Navoiy qalamiga mansub ekani — ko'pchilikka ayon. Ammo bu — umumiy bir tasavvurot, xolos.

Xo'sh, bu misralar shoirning aynan qaysi asaridan olingan? Bu so'zlar qanday voqeiy-badiiy munosabat bilan qog'ozga tushgan? Aynan kimning tilidan aytilgan? Shiorning asl mohiyati nimadan iborat?

Bu savollar hammamizni qiziqtirsa kerak.

Mazkur bayt "Farhod va Shirin" dostonidan olingan.

…Chin xoqoni farzandsiz edi. Xudodan tilay-tilay, oxiri o'g'il ko'rdi. Endi u xotirjam — ko'zining nuri, taxtining vorisi bor.

Biroq o'g'il — tamom boshqa bir dardga mubtalo. Haddan tashqari mahzun. Unga atab to'rt faslga moslab qurdirilgan qasrlar va ularda yil bo'yi har kuni yuz ot-u ming qo'y so'yib o'tkazilgan bazmlar ham shahzoda ruhiyatidagi g'amginlikni zarracha bartaraf etolmadi. Oxiri shoh bazmi jamshid tuzib, arkoni davlati huzurida o'g'liga yuksak martaba — taxti oliyni topshirdi. O'zi uning panohida maza qilib qarilik gashtini surmoqchi bo'ldi. Ammo Farhod mamlakatni boshqarishni bo'yniga olmadi: ming tavoze bilan uzrlar aytib, tajribasizligini ro'kach qildi — avval kichikroq bir vazifa berib, ish o'rgatishlarini so'radi.

Bu oqilona javobdan mamnun bo'lgan xoqon o'g'lini xazinaga boshladi. Maqsadi uning boshidan dur-u gavhar sochish edi. Shunda nogoh Farhodning ko'zi tip-tiniq billurdan yasalgan g'aroyib sandiqqa tushdi, uning ichida ajib bir suvrat namoyon bo'lgandek tuyuldi. Lekin suvratning siri oshkor emas — sandiqqa mustahkam qulf osig'liq. Farhod shu sirga yetmoqchi bo'lib, kalitni olib kelishlarini, qulfni ochishlarini so'radi.

Otasi esa: *"Bu sandiq tilsimlangan, uning sirini hech kim bilmaydi, kaliti yo'q, qulfi ochilmaydi"*, dedi.

Ana shunda Farhod "Tafakkur" jurnaliga shior bo'lgan mashhur baytni aytdi:

Dedi: "Har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod".

Odamzod amalga oshirgan har qanday ish sirini odamzod aql-tafakkur bilan bilib olishi mumkin!

Shu tariqa Farhod: *"Ilm dengiziga sho'ng'idimmi, bas, men uchun hal qilinmaydigan biror mushkul masala yo'q, ana shu sandiq sirini bilib olmagunimcha tinchimayman"*, deb turib oldi.

Oxiri kalitni keltirishdi. Sandiq ichidan osmon sandig'idagi Quyosh yanglig' bir porloq ko'zgu chiqdi. Uni Iskandari Rumiy har biri Aflotundek bilimga ega, dono to'rt yuz olimga yasattirgan edi. Oyna orqasiga uning maxfiy siri ham bitilgan ekan: *"Kimki shu tilsimni ochsa, ko'zguda o'zining kelajakda kechajak hayoti manzarasini ko'ra oladi. Lekin tilsimni ochish shunchaki ish emas. Bu sirni oshkor qilish yo'lini faqat yunonlik buyuk xiradmand — Suqrotgina biladi. U Yunonistondagi tog'da — bir g'orning ichida yashaydi. Tog'ga yetguncha ham yo'lda uch manzil bor. Birinchisida dahshatli ajdarho, ikkinchisida esa Ahraman degan battol dev uchraydi, uchinchisida yanada xavfliroq bir tilsim yashirin…"*.

Farhod xoqon, arkoni davlat va lashkar bilan safar qilib, duch kelgan barcha dahshatli kuchlarni yengdi. Suqrot suhbatiga musharraf bo'lib, undan sandiq tilsimni ochish sirini bilib qaytdi, yurtiga kelasolib, xazina sari yugurdi. Sandiqni ochib, ko'zguni oldi. Unga boqqani zahoti xuddi hayotdagidek harakatda bo'lgan bir ajib manzarali lavhani ko'rdi. Unda ko'm-ko'k maysalar-u qip-qizil gullarga burkangan dasht, vodiy chetida baland tog', tog' o'rtasida g'uj-g'uj odam aks ettirilgan. Ular orasida xuddi quyib qo'ygandek o'ziga o'xshagan yigit ariq qazish bilan mashg'ul edi. Shu payt bir guruh otliq qizlar — pari chehralar paydo bo'ldi. Ular ichida go'yo bir Oydek, yo'q-yo'q, olam-jahonni yoritib turgan Quyoshdek bir parivash bor edi. Ariq qazib turgan yigit o'sha go'zal sari boqdi. Nigoh tashladi-yu, xuddi o'q yegan ohu misol nola chekib, hushdan ketib yiqildi…

Bu holatni tomosha qilib turgan Farhod haligi go'zal qizning husniga yaxshiroq tikilmoqchi bo'lib, oynani ko'ziga yaqinroq keltirib qaragan edi, u ham xuddi o'sha lavhada ko'ringan yigit yanglig' hushdan ketib yiqildi.

Bu — tahlil qilayotganimiz shioriy baytning zohiriy, ya'ni bevosita asar voqeasi bilan bog'liq mohiyati.

Xo'sh, bu ikki satrning dostondagi o'rni qanday-u uning botiniy, ya'ni falsafiy mohiyati nimadan iborat?

Tafakkur kuchi Farhodni sandiqning sirini ochish dardiga mubtalo etgan edi. Niyatiga yetib, mana, u oynani tomosha qilish baxtiga musharraf bo'ldi. Ko'zguda bir go'zal unga diydor ko'rsatdi. Uni ko'rdi-yu, hushidan ketdi. O'ziga kelganidan keyin oynaga qaytib qancha qaramasin, baribir, unda hech narsa ko'rinmadi. Farhod o'sha qizga oshiq-u beqaror bo'lib qoldi. Huzur-halovatini butkul yo'qotdi. Axir yorini bir ko'rdi-yu, shu zahoti undan ayrilib, hijron azobiga tushib qoldi-da. Endi uni topmaguncha jonida jon qayda? Yor ishqi uning ko'ngliga tushdi. Oynaning siriga-ku tafakkur bilan yetgan edi. Endi ko'ngil darpardasi ochildi. Buning yo'lini ham Suqrot ko'rsatdi. Suqrot Farhodga pirlik qildi. Endi ko'ngil tubidagi orzuga — yorning haqiqiy vasliga yetish kerak…

Bilasiz, tasavvuf yo'li **shariat**, **tariqat** va **haqiqat** bosqichlariga bo'linadi. Shariat — Olloh buyurgan va paygʻambarimiz(s. a. v.)dan qolgan qonun-qoidalarni mukammal bajarishdan iborat. Shundagina kishi komil musulmon bo'ladi. Komil musulmonga Olloh o'z siridan bir chimdim oshkor etadi. Ana shu ummat Ollohning diydoriga bir lahzagina yetgandek bo'ladi. Aniqrog'i, uning dunyodagi eng buyuk go'zallik ekanini his qiladi. Endi ana shu diydor kishini o'ziga tortaveradi va tariqat — ishq boshlanadi.

Majozan dostonning Farhod Shirin jamolini oynada ko'rganigacha bo'lgan qismi Farhodning shariat bosqichini mukammal bajarganini bildiradi. Shariatni, Ollohni bilish yo'lidagi tafakkur bosqichi, deb ham hisoblash mumkin.

Oyna — dostonda aql yoki tafakkur emas, bevosita ko'ngil ramzi. Shirin — yor. Yorni esa, Olloh ramzi, deb bilsak, demak, Farhod Qodir Egamni tafakkur bilan bilish orqali uning jamolini birrov ko'rgandek bo'ldi. Biroq endi uning suvratiga emas, haqiqiy vasliga — o'ziga musharraf bo'lmoq kerak. Shu bois Farhodda ko'ngilda o'rnashgan yorni topish ishqi jo'sh urdi. Tangrini ko'ngil bilan bilish esa — ma'rifat. Bu so'zning *"arafa"* so'zi bilan o'zakdosh ekanidan kelib chiqilsa, u aynan *"Yaratganga yaqinlashish"* degan ma'noni beradi. Shuning uchun *"ma'rifat"* so'zi eski tilimizda *"tasavvuf"* kalimasi bilan ma'nodosh, ya'ni sinonim hisoblangan. Ma'rifatga yetish esa — koni mashaqqat.

Xoja Bahouddin Naqshband (1318 — 1389) hazratlari bu borada ham haq gapni aytganlar: *"Tavhid sirrig'a yetsa bo'lur, ammo ma'rifat sirrig'a yetmak dushvordur"*. Tavhid — Ollohning yakka-yu yagonaligi, falsafiy ma'noda tushunilganda, hamma narsada Ollohning zuhur etishi, zamonaviy atamalar bilan ifodalaganda, olamning bir butunligi. Buni tafakkur bilan anglab yetish mumkin. Lekin Tangri taoloni ko'ngil bilan anglash — dushvordan dushvor.

Farhodning ko'zguda yorini ko'rishini majozan, *tavhid siriga yetish ifodasi,* deb qarasak, chindan ham, uning oyna tilsimini ochishgacha chekkan mashaqqatlari ruhan yorining haqiqiy vasliga yetgungacha, ya'ni umrining so'ngigacha boshidan kechirgan azoblari oldida holva ekanini anglaymiz.

Xo'sh, nega *"tafakkur"*, nega *"ko'ngil"*? Bu ikki tushunchaning bir-biriga nima daxli bor?

Navoiy dini islomning buyuk targ'ibotchisi edi. Shuning uchun bu savolga javob berishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib o'taylik. Gap shundaki, G'arb dunyosida ilm **dunyoviy ilm** va **diniy ilm** tarzida ikkiga ajratiladi. Ba'zilar buni o'ylamay-netmay islom dunyosiga ham tatbiq etadi va shu tariqa qo'pol xatoga yo'l qo'yadi. Chunki islom — eng dunyoviy din. To'g'ri, islom olamida ham ilm ikkiga bo'linadi. Lekin u tamom boshqa asoslarga ko'ra tasnif qilinib, **zohiriy** va **botiniy** ilmlarga ajratiladi. Nozik jihati shundaki, zohiriy ilmning o'zi ham diniy, ham ovrupocha tasavvurdagi dunyoviy fanlarni qamrab oladi. Chunki Ollohni, demakki, dunyoni bilishning aql-tafakkur bilan anglanadigan taraflarini zohiriy ilm o'rganadi. Islom dunyoni, falakni, Yerni, zarrotni, hatto, inson jismini va hokazo moddiy olamni o'rganishni ham, *Olloh sirini bilish, ya'ni ilm* deb hisoblaydi. Axir inson aqli fahmlashi mumkin nimaiki bo'lsa, uni Olloh yaratgan-ku! Falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda, mavjud olamning o'zi ham — Ollohning bir bo'lagi, Uni aks ettirib turgan bir suvrat. Islomiy ilm aynan shu *"dunyoviy"* deb ajratilgan sohalar bo'yicha ham o'tmishda yuksak cho'qqilarga yetgani bejiz emas. Ilmning aql bilan o'rganiladigan sohasi shuning uchun *"zohiriy"* deb ataladiki, bunga, *Olloh so'zi — Qur'oni karimning yuzaki, ya'ni tashqi, tez fahmlanadigan ma'nolarini anglash,* deb qaraladi. Lekin Olloh siriga ruh, his, tuyg'u bilan — ko'ngil bilan yetish ham bor-da. Bu — tasavvuf ilmi. Tasavvufda Qur'oni karimning ichki — botiniy ma'nolari anglanadi.

Shunday qilib, tafakkur ilmiga ega odam — *"olim"*, tasavvuf ilmiga ega kishi — *"orif"* deyiladi. Demak, tafakkur insonni ilmli, tasavvuf esa ma'rifatli qiladi. Biroq ilm ma'rifatni, ma'rifat esa ilmni inkor etmaydi. Aksincha, ular bir-biriga chambarchas bog'liq, o'zaro vobasta. Shuning uchun ko'pincha bu ikki tushuncha *"ilm-u ma'rifat"* tarzida baqamti ishlatiladi. Chunki ilmdan ham, ma'rifatdan ham maqsad — kamolot. Komil inson bo'lish uchun kishiga ikkalasi ham kerak. Ilmi bo'lsa-yu, ma'rifati bo'lmasa, aqli bo'lsa-yu, ko'ngli bo'lmasa, bunday odamni, komil, deyish mumkinmi?

Shu o'rinda mashhur bir rivoyatni eslash joiz ko'rinadi.

Abu Ali ibn Sino zamonasining bag'oyat nomdor olimi edi. Unga zamondosh Abusaid Abulxayr degan shayxning dovrug'i ham olamni tutgan edi. Ikki buyuk zot bir-birlari haqida ko'p eshitgan bo'lishsa ham, uchrashib, diydor ko'rishmagan edi.

Kunlardan bir kuni taqdir ularni uchrashtirdi. Shogirdlar ikki ustoz bahslashib, bir-birlarini obdon sinab olsinlar uchun ularni xoli qoldirishdi.

Bahs qayoqda deysiz?! Ikki buyuk zot og'iz ham ochmay juda uzoq o'tirdi, o'tiraverdi. So'zga hojat yo'q edi. Ular shundoq ham bir-birini chandon yaxshi anglayotgan edi.

Muloqot tugagach, Abu Ali ibn Sinoning shogirdlari qiziqib:

— *Abusaid Abulxayrning bilimi yaxshi ekanmi?* — deb so'rashdi. Shunda Abu Ali ibn Sino:

— *Men aql bilan yetgan narsaga Abusaid Abulxayr ko'ngil bilan yetgan ekan,* — deb javob berdi.

Abusaid Abulxayrning muridlari ham pirlarining Abu Ali ibn Sino haqidagi xulosasini eshitishga shoshilib, undan:

— *Abu Ali ibn Sinoning bilimi ne darajada ekan?* — deb so'rashdi. Abusaid Abulxayr mamnuniyat bilan bunday javob qildi:

— *Men ko'ngil bilan yetgan narsaga Abu Ali ibn Sino aql bilan yetgan ekan.*

Bu savol-javoblardan bilinib turibdiki, Abu Ali ibn Sino — olim, Abusaid Abulxayr — orif bo'lgan. Navoiy talqinidagi Farhod esa ham olim, ham orif, ya'ni ham ilm, ham ma'rifatga yetishgan komil inson edi. Lekin u birdaniga komillik martabasiga ko'tarilib qolgan emas. Doston boshdan-oxir Farhodning ana shu yuksak rutbaga yetish yo'lidagi mashaqqatlarini badiiy bo'yoqlarda, ramziy chizgilarda ko'rsatib berishga bag'ishlangan.

Tafakkur Farhodga xazinadagi sirli sandiq qulfini ochishga imkon tug'dirdi. Sandiqdagi oyna — ko'ngil ramzi. Demak, Farhod tafakkur bilan ko'ngil qulfini ochdi. Tafakkur unga kalit bo'ldi. Farhod yorining chiroyini bir lahza ko'rdi. Otashin oshiqqa aylandi. Ma'rifatga yo'l topdi. Umrining qolganini u ana shu suvratini ko'rgani yori vasliga yetishga baxshida etdi.

Bular — "Tafakkur" jurnali shiorining falsafiy-tasavvufiy mohiyatiga tegishli mulohazalar.

Xo'sh, shiorning bugunimiz bilan qanday bog'liqligi-yu nima ahamiyati bor?

Baytning mohiyatini belgilovchi eng asosiy so'z — *"tafakkur"*.

Yosh, mutaraqqiy kelajak sari dadil talpinayotgan, bugungi kunda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari yuz burgan O'zbekistonimiz zimmasida jahonning ilg'or ishlab chiqarish darajasiga yetib olishdek o'ta muhim vazifa turibdi. Shunday ekan, tabiiyki, har birimizning xayolimizni *"Taraqqiyot — nima o'zi?"* — degan masala bezovta qiladi.

Bahouddin Naqshband hazratlari naqshbandiya tariqatining o'ziga xos jihatlari haqida so'ylay turib: *"Bu tariqatda oz amal bila ko'p futuh yetushdur"*, deganlar. Bu, *kam vaqt sarflab, ko'p yutuqqa — foydaga erishish,* degan ma'noni bildiradi. Albatta, piri komil bu gapni tariqatda Ollohga yetish yo'lini ko'zlab aytganlar. Lekin ana shu oz amal bilan ko'p foydaga erishish shiori bugun bashariyat taraqqiyotining mag'zini tashkil etadi. Bu — *kam kuch sarflab, ko'p mahsulot olish,* degani. Agar inson kam vaqt sarflab, kundalik ehtiyojlarini qoplash yo'lini topa olsa, ya'ni o'n kishining ishini bir kishi bajarish yoki o'n kunlik ishni bir kunda uddalashga erisha olsa, insonda insoniylikni takomillashtirish, ya'niki ma'naviyatni o'stirish uchun ilgarigidan ko'ra ko'p muhlat-u imkoniyat yuzaga keladi. Shunda odamzod yashashni osonlashtirishning yana boshqa yangi-yangi yo'llarini izlay boshlaydi. Taraqqiyot taraqqiyotni keltirib chiqaradi. Axir o'ylab ko'ring, dunyoning mutaraqqiy mamlakatlarida yetti kishi dehqonchilik qilib, yuz jonni qishloq xo'jaligi mahsuloti bilan ta'minlab turgan bir zamonda bizda, lofi bilan aytganda, yetmish kishi yerda ishlab, yuz odamni boqsak, demak biz hali texnologiyada, ya'niki tafakkurda orqada ekanmiz-da! Ilg'or usul, unumdor darajaga yetishish uchun ham aql-u malaka — ilm kerak. Tafakkurimiz qancha o'ssa, hayotimiz ham shuncha go'zallasha boradi. Shunda aholining hozirgidan ko'proq qismi kishilarga madaniy, ma'rifiy, ma'naviy xizmat qiladi. Inson insonday yashaydi. Chunki odam bolasi yeb-ichish uchungina yaralgan emas.

2019-yili mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmi 58 milliard dollar bo'lgani televideniye orqali e'lon qilindi. 2018-yili bu ko'rsatkich 44 milliard dollar bo'lgan. Demak, 14 milliard dollar oshgan. 2019-yilgi yalpi ichki mahsulotni kishi boshiga taqsim qilsak, bu 1 ming 731 dollardan to'g'ri kelyapti. 2018-yili esa bu ko'rsatkich 1 ming 313 dollarni tashkil etgan. Yaqin kelajakda bu ko'rsatkichni 100 milliard dollarga yetkazishimiz kerak. O'shanda kishi boshiga yiliga 2 ming 985 dollardan to'g'ri keladigan bo'ladi. Ammo bu ko'rsatkich Turkiyada kishi boshiga 9,5 ming, Janubiy Koreyada 35 ming dollar bo'lib turganda, bizda ahvol qanchalar og'ir ekani ayonlashadi. Holbuki, Turkiya ham, Janubiy Koreya ham Yer yuzining ikkinchi darajali mutaraqqiy mamlakatlari safiga kiradi. Dunyoning eng rivojlangan AQSh, Kanada, GFR, Buyuk Britaniya, Italiya, Fransiya, Yaponiya davlatlarida esa bu ko'rsatkichlar — afsonaviy darajada yuqori.

Shuni ham unutmaslik kerakki, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilimizda *"ma'rifat"* so'zining ma'nosi kengayib ketgan. U endi, tor ma'nodagi *"tasavvuf"* tushunchasini anglatishdan tashqari, umuman, bilimlilik, ma'lumotlilik, o'qimishlilik kabi ma'nolarni, hatto ta'limni ham qamrab olgan. Aynan shuning uchun ana shu asr oxirlari va XX asr boshlarida bo'y ko'rsatgan jadidchilik oqimini *"ma'rifatparvarlik harakati"* deb nomlaymiz.

…Yana "Farhod va Shirin"ga qaytsak.

Ko'rdikki, ikki satr ham doston falsafasini anglashda muhim ahamiyat kasb etar ekan. Shioriy baytni Farhod dostonning juda zarur va bag'oyat e'tiborli bir nuqtasida aytgan. "Farhod va Shirin"da butun asar mohiyatini belgilash uchun ochqich bo'la oladigan baytlar yana bor. Lekin bunday qo'shmisralar uncha ko'p emas.

Xullas, istiqlolimiz mevasi yanglig' dunyoga kelgan ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli-bezakli jurnalimizning "Tafakkur" deb nomlanishi va hazrat Navoiy bayti shior qilib olingani ham qutlug' niyatlar bilan kelajak sari odimlayotgan O'zbekistonimizning bugungi bosh maqsadini ifodalaydi.

Bu shiorda, *inson tafakkur bilangina taraqqiy eta oladi,* degan g'oya darj etilgan. "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" boshida shuni teran anglab yetishimiz kerakki, ilm-ma'rifatni yuksaltirishga ham, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ham aynan tafakkur yo'lagi orqali o'tiladi.

Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari nomzodi,
O'zbekiston Respublikasi
xalq ta'limi a'lochisi

O'qituvchi minbari

Kimyo zerikarli fan emas!

Kimyo fani deganda ko'pchilik maktabda kimyoviy masalalarni yechish, laboratoriya mashg'ulotlari, va albatta, portlash reaksiyalarini ko'z oldiga keltiradi. Shuning uchun ham bu fan ko'pchilik uchun juda murakkab va zerikarlidek tuyuladi. Suvning formulasinigina biladigan, va hattoki, uni ham bilmaydigan odamlarni ko'p uchratamiz.

Ammo kimyo mo'jizakor, qiziqarli fan. Buni anglaganlarga o'sha ko'pchilik uchun zerikarli ko'ringan masalalarni-da yechish o'zgacha zavq-shavq beradigan mashg'ulotga aylanadi. Bu fanning hayotimizdagi ahamiyati benihoya kattadir. Zero, kimyosiz hayotimizni tasavvur qilishimiz aslo mumkin emas. Prezident Shavkat Mirziyoyev ham bu fanning davlatimiz iqtisodiyotidagi o'rni haqida so'zlab, hali oldinda kamchiliklar ko'pligini aytib o'tgandi: "Har qanday ishlab chiqarish negizida kimyoviy jarayonlar yotadi, bu sohasiz iqtisodiyotda taraqqiyot bo'lmaydi.

O'zbekiston zaminida Mendeleyev jadvalidagi barcha kimyoviy elementlar mavjud, mamlakatimiz uglevodorodlarga boy bo'lsa-da, kimyo sanoatimiz asosan qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'it ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Qurilish materiallari, farmatsevtika, tekstil, mashinasozlik kabi tarmoqlar uchun zarur bo'lgan murakkab polimerlar, katalizatorlar, reagentlar va sintetik tolalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan. Buning oqibatida har yili 1,5 milliard dollarlik kimyo mahsulotlari import qilinmoqda. Ishlab chiqarilayotgan fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar ham mavjud talabning faqat uchdan birini qoplaydi, xolos.

Murakkab mineral o'g'itlar ishlab chiqarish quvvatlari 60–70 foizga eskirgani energiya resurslarining ortiqcha sarflanishi, kimyo mahsulotlari tannarxining asossiz oshishiga olib kelmoqda.

O'tgan yildan boshlab, mineral o'g'itga talabni qondirish uchun 3,1 milliard dollarlik 17 ta investitsiya loyihasi amalga oshirila boshlandi. Bundan tashqari, kimyo sanoati mahsulotlarini diversifikatsiya qilish maqsadida 2025-yilgacha 4,2 milliard dollarlik yana 17 ta loyiha hayotga tatbiq etiladi".

Bundan ko'rinib turibdiki, kimyo fanini o'rganish, uning maqsad va vazifalarini to'laqonli ravishda tushunib yetish o'quvchi yoshlarimizning oldida turgan ulkan vazifadir. Shu bilan birga biz kimyo fani o'qituvchilarining oldida ham ta'lim-tarbiya jarayonini mukammallashtirish, yoshlarning kimyo faniga qiziqishini kuchaytirish kabi mas'uliyat turibdi.

Ayni paytda tabiiy gazning bor-yo'g'i 14 foizi, jumladan, kimyo tarmog'ida 5 foizi chuqur qayta ishlanmoqda. Kremniy, kaolin va gips xomashyosidan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish e'tibordan chetda qolmoqda. Buning uchun esa chuqur bilimga ega kimyogar olimlar kerak.

O'zbekistonda 2030-yilgacha kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 4,5 barobar oshiriladi. Bu degani nafaqat O'zbekiston, balki xorijiy davlatlarda ham kimyo mahsulotlariga talab ortgan. Kiyim kechagimiz-u oziq-ovqat mahsulotlarimiz tarkibi kimyo. Ularni ishlab chiqaruvchilar kimyoviy qo'shimchalarning inson organizmiga ta'siri qanday ekanligini yaxshi bilishsa, ularning xossalari bilan tanish bo'lishsa, hammabop, foydali mahsulotlar, chidamli va zararsiz uy ro'zg'or buyumlari, ta'siri tez va davomli bo'lgan dori vositalari ishlab chiqarilishiga muvaffaq bo'lamiz.

Fanni chuqur o'zlashtirdik desag-u, lek hayotda qo'llay olmasak ne naf? Davlat ta'lim standartlari yangilanib, kompetensiya tushunchasi kirib keldi. O'quvchilarda kompetentlilikni rivojlantirish asosiy maqsadga aylandi. Xo'sh, bu nima degani? Masalan, kimyo fanidan ko'p atomli spirt mavzusi o'tildi. Spirt deganda o'quvchilar asosan 70 foizli tibbiyot etil spirtini tushunadi. Bu spirtimiz bir atomli spirt hisoblanadi. Uning turmushda qay maqsadda ishlatilishini ko'pchilik biladi. Ana endi ko'p atomli spirt qay maqsadlarda ishlatiladi, qayerda uchraydi, buni o'quvchilar dars davomida o'rganadi. Etilen glikol antifriz sifatida ishlatilishini, glitserin yumshatuvchi vosita, parfumera sifatida qo'llanilishini bilib oladi. Qizlarimiz qishning sovuq kunlari deraza oynalari terlab qolmasligi uchun glitserin qo'shilgan suvda artib qo'ysa ancha paytgacha oynalar terlab xunuk bo'lib qolmasligini o'rganadi. Yigitlarimiz ham o'zlariga zarur hayotiy ma'lumotlarni yodda saqlashi kerak. Antifrizning kimyoviy tarkibiy xossalarini uqib oladi. Soxta antifrizlar tushunchasini ham o'zlashtiradi. Uning qanday tarkiblisi foydali va soxta bo'lishini farqlay oladi.

Shu tariqa kimyo fanidagi har bir mavzuni hayotga bog'lab o'rgatsak, o'g'il-qizlarning hayotiy kompetensiyasi ortadi, "zerikarli" deb bilgan faniga nisbatan qiziqishlari kuchayadi. Natijada kelajakda mamlakatimiz iqtisodiga foyda keltiradigan olim va mutaxassislarimiz soni ortadi.

Guljahon BAYDULLAYEVA,
Oqoltin tumanidagi
2-maktabning kimyo fani
o'qituvchisi

Kechagina toy-toylab qadam tashlayotgan bolakay hash-pash deguncha maktab yoshiga yetib qoldi. Bundan juda xursandman. Ijtimoiy tarmoqlarda maktab darslari ham an'anaviy, ham onlayn davom etishi mumkinligi haqida o'qib qoldim. Darslar masofadan o'tilishi bir qancha yengilliklar yaratadi albatta.

"Bolam birinchi sinfga chiqadi, ammo..."

Ota-ona uyda yaxshi "ustoz" bo'lsa, o'qituvchilar ham mas`uliyat bilan yondashsa, muammo yo'qdek. Onlayn darslar 2–11-sinflarda qiyinchilik tug'dirmas, ammo bu men kabi bolasini bu yil maktabga chiqaradiganlar qalbiga g'ulg'ula tushirdi.

Darslar boshlangach masofadan ishlab, uyda bolamning darslari bilan iloji boricha o'zim shug'ullanaman. Lekin keling, tan olaylik, ustoz baribir ustozda! O'yinqaroq bolajonimning qaysarliklariga chidab, qo'llaridan ushlab yozdirolarmikanman? Harflab, bo'g'inlab o'qitib savodini chiqarolarmikanman? Yoki bu yil maktabga chiqarmay turaymi, degan savollar tinchlik bermayapti. Bunday savollar nafaqat meni, farzandi birinchi sinfga chiqadigan barcha ota-onalarni qiynamoqda. Maktab darslari qanday o'tilishi haqida qaror chiqarilayotganda 1-sinflar haqida aniq gap aytilmagan. Bizning fikrlarimiz ham inobatga olinishini xohlardim. Zero, barcha bilimlarning poydevori 1-sinfda qo'yiladi.

Shoira AZIMOVA

Til o'rganishdagi to'rt qoida

Yosh avlod juda qiziquvchan va bilishga tashnadir. Hozir til o'rganish uchun turli xil markazlar, qo'shimcha til o'rganish kurslari mavjud, internetda ham til o'rganish uchun imkoniyatlar yaratib berilayapti. Shunga qaramasdan rus tilini o'rganishga qiynalayotganlarni uchratamiz.

Xalqimizda «Kerakli toshning og'iri bo'lmaydi» degan naql bor. O'quvchida kuchli istak, xohish bo'lsa, murakkabliklarni yengib o'tish mumkin. Bu borada ko'mak beradigan asosiy to'rt qoidani esda tutish kifoya:

Birinchi qoida: rus tilidagi videodarslarni izlang, filmlar ko'ring, radio tinglang. Har qanday grammatika qo'llanmasidan ko'ra kommunikativ metodika ko'proq yordam beradi.

Ikkinchi qoida: alohida so'zlarni emas, balki butun bir iboralarni yod olishga harakat qilish kerak. Iboralarni o'rganish jarayonida grammatikani ham o'zlashtirib olasiz. So'zlarni matnda yoki biror-bir vaziyatda qo'llash, gaplarni qanday tuzish, savollarni qanday berish — qoidalarni yodlash bilan emas, balki rus tilida qo'llaniladigan iboralarni qo'llash orqali o'rganiladi.

Uchinchi qoida: tilni o'rganishda nimaga ko'proq e'tibor qaratsangiz, shu yo'nalish yaxshi rivojlanadi. Masalan, faqat grammatik vazifalarni bajarsangiz, so'zlarni turlab, fe'llarni tuslab o'tirsangiz, shu borada bilimingiz kuchli bo'ladi. Ammo gapirishga harakat qilmasangiz, hech qachon rus tilida gaplasha olmaysiz. Rus tilidagi filmlarni ko'rishni xohlaysizmi? Marhamat, tomosha qiling. Rus tilida gaplashuvchilar bilan suhbatlashishni istaysizmi? Gaplashishga harakat qiling, rus tilida gapiradigan ustoz yoki suhbatdosh izlang, shug'ullaning va siz, albatta, rus tilida ravon gapirasiz! Axir musiqa asbobiga qarab turib, uni chala olmaysiz-ku! Amaliyot zarur!

To'rtinchi qoida: eng avval oldingizga maqsad qo'ying. Agar sizga rus tili nega kerakligini aniq bilmasangiz, tez orada tilni o'rganish darslaridan voz kechib yuborasiz. Rus yozuvchilarining asarlarini aslida o'qimoqchimisiz? Rus tilini o'rganish uchun ajoyib imkoniyat. Hech bo'lmasa, asosiy qo'llaniladigan so'zlarni bilsangiz, ayni muddao. Ruscha komediyalarni ko'ring, ko'rsatuvlar tomosha qiling, rus tilini oson o'rganasiz.

Natalya KAZAKOVA,
To'rtko'l tumanidagi
18-maktab o'qituvchisi

Munosabat

Ilm-fan taraqqiyotiga e'tibor

XXI asr ilm-fan va texnika taraqqiyoti asridir. Xalqimiz jahon sivilizatsiyasi erishgan yutuqlarga o'z kashfiyotlari bilan munosib hissa qo'shgan buyuk allomalarni yetishtirib bergan. Bunga sabab, balki, xalqimiz mentalitetida mehnatkashlik, yangilikka intilish, ilmli insonlarni ulug'lash xislati bor bo'lganidandir.

Keyingi qisqa muddat davomida mamlakatimizda Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan ilm-fan va texnika taraqqiyotiga alohida e'tibor berilib, pedagoglar, olimlar va professor-o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeyini tiklash, ularning turmush darajasini yanada oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish borasida ko'plab Farmon, Qarorlar qabul qilindiki, ularning bajarilishi bugunning o'zidayoq samara bera boshladi. Prezidentimizning "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shubhasiz, o'z vaqtida qabul qilingan bo'lib, biologiya va kimyo fanlarini ravnaq topishida, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida, ushbu sohalarda yosh kadrlar tayyorlashda muhim bir qadam bo'ldi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishida, xalqimiz farovonligini yanada oshirishda ilm-fanning, shu jumladan, kimyo va biologiya fanlarining rivojlanishi ham muhim o'rin tutadi. Ushbu ikki fan uzviy bog'langan bo'lib, fan yutuqlari iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi, neft, gaz, kimyo, tog'-kon, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini yuqori bosqichga olib chiqishga asos bo'ladi. Tibbiyot, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarining negizida ham biologiyaining rivojlanishi yotibdi.

Vatanimizda boshqa fanlar qatori biologiya fanlari rivojlanishida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda, bir qancha dunyoga mashhur biolog olimlarimiz – akademiklar biokimyogar Yolqin To'raqulov, biofizik Bekjon Toshmuhammedov, genetik Jo'ra Musayev, botanik Qodir Zokirov, genetik va seleksioner Abdumavlon Abdullayev, mikrobiolog Mashhura Mavloniy, biokimyogar Tal'at Soatov, zoolog Jaloliddin Azimov va molekulyar biolog Abdusattor Abdukarimovlarning ilmiy maktablari saqlanib qoldi, ushbu ilmiy maktablar vakillari jahon biologiya fani rivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqdalar. Ushbu ilmiy maktablarning saqlab qolinishiga sabab, albatta, ilm-fanga bo'lgan e'tibor, tanazzulga yuz tutgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining qayta tiklanishi, tugatilgan ilmiy-tadqiqot institutlarining yangidan tashkil etilishi bo'ldi.

Shuni e'tirof etishimiz kerakki, ilm-fanga e'tibor tufayli qisqa muddatda yosh akademiklarimiz biofizik Ravshan Sobirov, botanik Komiljon Tojiboyev, genetik Ibrohim Abdurahmonov va o'simliklarni himoya qilish sohasida Botirjon Sulaymonov ilmiy maktablari yaratildi, ushbu maktablarda olingan ilmiy natijalar jahonning yirik ilmiy markazlari talablari darajasida bo'lmoqda. Shuningdek, keyingi 4 yil davomida olimlar va professor-o'qituvchilarning jamiyatda hurmati oshib bormoqda, ularning oylik maoshlari bir necha marta oshirildi, lavozim maoshlariga ustama va qo'shimcha haqlar belgilandi, ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasi zamonaviy asbob-uskunalar bilan boyitila boshlandi. Eng muhimi, respublikamizda ilmga chanqoq yoshlarga berilayotgan e'tibor tufayli, ular ilm-fan bilan shug'ullanishga intila boshladilar.

Dunyodagi barcha biologiya fanlarining fundamental poydevori biofizika ekanligi tan olingan bo'lib, biofizika fani tiriklikning asosini tashkil qilgan tizimlardagi fizikaviy va kimyoviy jarayonlarni tadqiq qiladi. Biofizika o'z ichiga alohida olingan biomolekulalarning (oqsillar, nuklein kislotalar, uglevodlar, lipidlar va boshqalar) tuzilishi va xossalarini o'rganishdan tortib, biosfera darajasida kechadigan murakkab jarayonlarning mexanizmlari va ichki dinamikasigacha bo'lgan muammolarni qamrab oladi. Ushbu fanni o'rganish tabiat qonunlari birligini, tirik organizmlarga nisbatan fizikaviy qonunlarning tatbiq etilishini tushunishga yordam beradi. Respublikamizda biologiya fanlari rivojlanishida biofizikaning o'rnini yuqori baholagan holda 2018-yili Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Biofizika va biokimyo instituti ochildi. Vatanni deb yurtimizga qaytgan biofizik olim Ravshan Sobirov akademiklikka saylandi, shu institutga direktor etib tayinlandi. Shuningdek, davlatimiz rahbari professor-o'qituvchilar va olimlar bilan uchrashuvda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tarkibida Biofizika fakultetini ochish topshirig'ini berdi.

Respublikamizda prezident maktablari, matematika maktablari, kimyo va biologiya yo'nalishidagi maxsus maktablar ochilishi juda quvonarlidir. Ushbu ixtisoslashgan maktablar o'quvchilaridan kelajakda kimyo va biologiya fanlari bo'yicha yirik mutaxassislar, olimlar yetishib chiqishiga aminmiz. Hayotiy tajribam ko'rsatishicha, men o'qigan bitta qishloq maktabini 1950–1980-yillarda bitirgan o'quvchilar orasidan, mening hisobimcha, 40 nafarga yaqin ilmiy darajali olimlar (shu jumladan, akademik Po'lat Habibullayev, 8 professor – matematik Husan Qodirov, tilshunos Qayum Karimov, matematik Yolqin Soatov, matematik Shavkat Mamatqulov, sharqshunos Ahadjon Hasanov, kimyogar Maqsuda Abdulhayeva, medik Abrorxon Akmalov va boshqa o'nlab fan nomzodlari) yetishib chiqqan, ularning aksariyati fizika-matematika va texnika ixtisosliklaridan dissertatsiya yoqlagan. Shuningdek, ushbu maktabning shu davrdagi o'quvchilari orasidan mingdan oshiq oliy ma'lumotli kadrlar yetishib chiqqan. O'tgan asrning 70-yillarida maktab bitiruvchilarining 70–80 % dan ko'pi birinchi yilning o'zidayoq talaba bo'lar edi. Men bu qishloq maktabi erishgan natijalarni "Hamza nomli maktab fenomeni" deb atagan bo'lardim hamda Xalq ta'limi vazirligi mutaxassislariga ushbu fenomenni o'rganishni tavsiya qilardim. Respublikamizdagi yana qaysi qishloq maktabida, o'quvchilar 2-sinfdan boshlab bahordagi g'o'za yaganasi va chopig'i, meva yoki sabzavot terimi, xashak o'rimi, kuzgi paxta terimiga jalb qilinishiga qaramay, shunday yuksak natijalarga erishilgan? Ushbu tajribalarni o'rganish va respublikamizda matematika, kimyo va biologiya yo'nalishlaridagi yangi ochilayotgan maktablarda foydalanish zarur.

O'tgan asrning 90-yillaridan keyin oliy ta'lim tizimida sifatsiz mutaxassislar tayyorlanishi, iqtidorli yoshlar xorijdagi ilmiy laboratoriyalarga ketib qolishi oqibatida, oliy ta'lim va ilm-fan sohalarida yetuk kadrlar masalasi og'ir bo'lib qolgan edi. Shuningdek, biologiya va kimyo sohalarida kadrlar tayyorlash jahondagi rivojlangan mamlakatlar kollej va universitetlari darajasida emas edi. Ushbu qarorda belgilangan tadbirlarning bajarilishi bilan yuqoridagi kamchiliklar ham tugatiladi, deb umid qilamiz.

> Oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari rahbarlari, kafedralar va ilmiy laboratoriyalar mudirlari keksayib qolishi yoki rahbarlik qilgan davrida ilmiy ko'rsatkichlar pasayib ketishiga qaramay o'z lavozimini yoshlarga bermay kelishi kuzatilmoqda. Bilishimcha, rivojlangan mamlakatlar universitetlarida, ilmiy laboratoriyalarda olimning 65 yoki 70 yoshdan so'ng rahbarlik lavozimida ishlashiga qonun va o'rnatilgan tartib bilan yo'l qo'yilmaydi.

Lekin keksa olimning ilmiy faoliyati uchun hamma sharoit yaratib beriladi, ilmiy maslahatchi sifatida foydalaniladi va unga shartnoma asosida haq to'lanadi.

Biolog olimlarimiz muayyan darajada yutuqlarga erishganiga qaramay, ularning natijadorligi past, ya'ni tibbiyotga, iqtisodiyotga, ekologiyaga, qishloq xo'jaligiga va fudomikaga joriy qilinishi oqsamoqda, chunki ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilish mexanizmlari ishlab chiqilmagan, qoniqarli darajada yo'lga qo'yilmagan edi. Yuqoridagi qaror bilan ilmiy-tadqiqot institutlarining bevosita ishlab chiqaruvchi korxonalarga ega qo'mitalar, aksionerlik jamiyatlari, agentliklar, uyushmalar bilan biriktirilishi ilm-fan natijadorligini oshirish mexanizmlaridan biri bo'lib qoladi. Mazkur mexanizm bo'yicha ilmiy tekshirish institutlariga biriktirilgan hamda ilmiy natijalardan manfaatdor bo'lgan organ, ilmiy tadqiqot institutini zamonaviy ilmiy va laboratoriya uskunalari bilan jihozlashga, zarur materiallar, butlovchi qismlar bilan ta'minlashga mablag' ajratadi hamda yuqori natijalarga erishgan xodimlarni moddiy rag'batlantiradi. Bu yangi, ilgari yo'lga qo'yilmagan tajriba amalga oshirilishi nafaqat ilmiy natijadorlikning yuksalishiga, balki kimyo va biologiya respublikamizda yanada rivojlanishiga ham asos bo'ladi. Ilmiy natijadorlikni oshirishning boshqa mexanizmlarini ham o'rganish muhim. Masalan, olim ixtirosini amaliyotga tatbiq qiluvchi yangi oraliq strukturalar faoliyatini yo'lga qo'yish samara berar?

Ilm-fanga berilgan e'tibor iqtidorli, kelajagi porloq yoshlarning iqtisodiyotning boshqa sohalariga, shuningdek, xorijiy davlatlarga ishlashga ketishini birmuncha to'xtatib turibdi. 1990–2000-yillarda respublikamizda birgina biofizika sohasida tayyorlangan 30 nafardan ortiq olim xorijiy universitetlarga va ilmiy laboratoriyalarga ishga ketib qolganini eslash joiz. Eng muhimi, yoshlarda Prezidentimizning ilm-fan taraqqiyoti uchun, yetuk kadrlar tayyorlashga ko'rsatayotgan e'tiboriga, bu borada olib borayotgan siyosatiga ishonch paydo bo'lgan. "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishda asosiy o'rin tutadi, uning bajarilishi esa, shak-shubhasiz, biologiya va kimyo yo'nalishlarida yetuk kadrlar tayyorlash, ilmiy natijadorlikning oshishida, ravnaq topishida muhim bir qadam bo'ladi.

Muzaffar ASROROV,
Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Biologiya fanlari bo'yicha ilmiy-texnik kengash a'zosi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, biologiya fanlari doktori, professor

Dolzarb mavzu

Barcha narsada aql-idrok g'olib bo'lgan

Ilm kishilariga yaxshi ma'lum, insonning nima tanovul qilishi uning geniga bevosita ta'sir o'tkazadi. Kengroq miqyosda fikrlaydigan bo'lsak, millat genofondining shakllanishi odamlar nimalar bilan oziqlanishiga bog'liq. Bu nimani anglatadi? Bu — insoniyat taqdiri uchun bevosita daxldor sohalar, bilimlarga talab va ehtiyoj kuchayganligini ko'rsatadi. Bugun ana shunday dolzarb masalalardan biri — oziq-ovqat xavfsizligi muammosidir.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi va qat'iy topshirig'i asosida jahonning ilg'or tajribalari o'rganilgan holda takliflar tayyorlanib, sohaning zamon talablari asosida rivojlanishi hamda malakali kadrlar bilan ta'minlanishi maqsadida 2018-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Samarqand veterinariya meditsinasi institutini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi.

Ezgulik elchisi

Institut oldiga soha uchun kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yaratish, rivojlangan xorijiy davlatlarning veterinariya va chorvachilik sohasi bo'yicha ilg'or tajribasini o'rganish va ta'lim jarayonlariga tatbiq etish, ta'lim berish jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash kabi qator vazifalar belgilab qo'yildi.

Ayni kez institutda 5 ta — veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi, veterinariya profilaktikasi va davolash, biotexnologiya va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi, zooinjeneriya, iqtisodiyot va agrotexnologiyalar fakultetlarida 5 mingdan ziyod talaba tahsil olmoqda. Ta'lim o'zbek, rus va ingliz tillarida olib borilyapti. Talabalar orasida Rossiya, Afg'oniston va boshqa xorijiy va qo'shni davlatlar fuqarolari bor.

Institut 5 ta o'quv binosi, 24 ta laboratoriya va 20 ta zamonaviy jihozlangan kompsyuter xonalariga ega. Muassasada barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavriat va zaruriy mutaxassisliklar bo'yicha magistratura bosqichi mavjud. Talabalarining amaliy ko'nikmalarini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun o'quv-tajriba xo'jaligi yetarli moddiy-texnik bazaga ega. 775 o'rinli ikkita talabalar yotoqxonasi, qariyb yetti yuz mingga yaqin kitobga ega markazlashgan axborot-resurs markazi(ARM) talabalar ixtiyorida.

Shuningdek, ta'lim muassasasida eng so'nggi rusumdagi asbob-uskunalar bilan jihozlangan alohida ikkita zamonaviy laboratoriya va vivariy faoliyat yuritadi. Institut har yili xalq xo'jaligi uchun bir yarim mingga yaqin veterinariya mutaxassislarini tayyorlaydi. Institut qoshidagi akademik litsey va texnikum, shuningdek, mamlakatimizning Toshkent va Nukus kabi yirik shaharlarida filiallari mavjud.

Qachon mahsulot bozori chaqqon bo'ladi?

Kimyoviy ishlov berilgan, uzoq muddat turli iqlim sharoitlarida saqlanishi kafolatlangan, geni o'zgartirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining bozori chaqqonmi yoki tabiiy toza mahsulotlarning? Albatta, dunyo bozorida tabiiy toza mahsulot doimo xaridorgir bo'lgan.

— Bu borada Prezidentimizning Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va mahsulot ishlab chiqarish hajmini kelgusi besh yilda 2,5 baravar oshirish haqidagi fikrlarida katta ma'no bor, — deydi **Samarqand veterinariya meditsinasi instituti rektori, biologiya fanlari doktori, professor Xudaynazar YUNUSOV.** — Demak, jahon bozorida yetishtirilayotgan mahsulotlarimiz obrazli qilib aytganda "ko'zga surtib olishlari mumkin" bo'lgan jihatlarga ega. Ammo tabiiy, eng muhimi, geni o'zgartirilmagan mahsulot yetishtirayotgan bizning bozorimizda nega xaridor yo'q, degan savol tug'ilishi tabiiy. Yurtboshimiz ko'p bor kuyunib ta'kidlayotganlaridek, biz avvalo yaqin atrofimizdagi hamdo'stlik davlatlari bozorlarida o'z o'rnimizga ega bo'lib olishimiz kerak. Buning uchun ekologik jihatdan toza mahsulotlarimizni qayta ishlash, qadoqlash ishlarini mukammal yo'lga qo'yishimiz talab etiladi. Shu sabab bizga zamonaviy texnologiyalar kerak, qolaversa, o'sha texnologiya bilan "tillasha oladigan" mutaxassislar ham suv bilan havodek zarur bo'ladi.

Mana shu maqsadni ko'zlagan holda institutda ayni kunda bir necha xalqaro xorijiy kompaniyalar bilan muzokaralar olib borilmoqda, grant loyihalarida ishtirok etilmoqda. Misol uchun, AQShning "Shemonics" kompaniyasi agrobiznes, salomatlik, fan va ta'lim, shuningdek, iqtisodiyot va xalq xo'jaligining turli yo'nalishlari bo'yicha innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi yirik xalqaro tashkilotlardan biri. Ular ilmiy salohiyatimiz bilan tanishgach yurtimizga, iqtisodiy salohiyatimizga katta qiziqish bildiryapti.

Kerakli mahsulot — go'sht!

Go'sht inson organizmi va oziq-ovqat ratsioni uchun eng kerakli mahsulot hisoblanadi. Yoshi, jinsi, bajaradigan ish faoliyatiga qarab bir odam kuniga kamida 100 grammdan go'sht iste'mol qilib turishi kerak. Bu miqdordagi go'sht bilan inson organizmiga kerakli darmondori, oqsil, uglevod va mineral moddalar kirib turadi.

Bolalar taomnomasiga ularning yoshiga qarab kuniga 60-70 gramm go'sht mahsuloti kiritilishi kerak. Oqsil moddasi kamligi esa kattalar va bolalarda turli kasalliklarga sabab bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, inson organizmi uchun kunlik ratsionda albatta go'sht bo'lishi kerak. Go'sht qimmat bo'lsa, aholi uchun muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi va uni xarid qilish imkoniyati pasayadi.

Kasbimiz taqozosi bilan chorvador fermer xo'jaliklari rahbarlari bilan gaplashib bir xil javob olamiz: "... go'sht nega qimmatlashmasin? Energiya resurslari, yem-xashak, ozuqa, yonilg'i, deyarli barcha narsaning narxi oshdi. Bu holatda narx ko'tarilishi tabiiy holat. Narx hali yana oshadi...".

Xo'sh, narx qachon tushishi mumkin? Qachonki, o'sha mahsulot bozorda ko'p bo'lganida. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotida narxni bozor belgilaydi. Davlat narxni tushirish uchun bozorda go'sht qimmatlashgan payt chorvachilik fermer xo'jaliklaridagi bo'rdoqilarni so'yib bozorga olib chiqib yoki tovuq va baliq mahsulotlari hajmini ko'paytirib natijaga erishishi mumkin. Bugungi kunda chorvachilik mahsulotlari narxini ushlab turish uchun esa yem-ozuqa bazasini ko'paytirib, uning narxini tushirishni o'ylash kerak. Bu yo'lda albatta bizga ilm-fan yaqindan yordam berishi mumkin.

Avvalo ilmiy salohiyat zarur

Institut shtatida bugun 428 nafar professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatadi. Shundan 31 nafari fan doktori, 94 nafari fan nomzodi va 12 nafari falsafa doktori ilmiy darajali professor-o'qituvchilar.

Ayni kunda institutning ilmiy salohiyati 33 foizni tashkil etmoqda.

Tabiiy toza mahsulotlarning soni va sifatini yanada ko'paytirish borasida SamVMI hozirda bir qator turdosh institutlar, jumladan, Veterinariya, Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi hamda Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari va ilmiy tadqiqotchilari bilan hamkorlikda ishlamoqda. Ularning birgalikda amalga oshirayotgan ilmiy tadqiqotlari xulosalari asosida qishloq xo'jaligi hayvonlari, shuningdek, parranda, baliq va asalarilarda uchraydigan turli kasalliklarning oldini olish va davolash borasida yaxshi ko'rsatkichlarga erishilmoqda. Qorako'l qo'ylari va qoramollarning mahsuldorligini oshirish hamda nasl xususiyatlarini yaxshilash, yangi tizimlar yaratish kabi ilmiy jihatdan dolzarb mavzular ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Innovatsion rivojlanish vazirligi grantlari asosida 2018–2020-yillarga mo'ljallangan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida institut tomonidan joriy yilda jami 6 ta amaliy loyihaga 1 110550.0 so'm mablag' ajratilgan.

Institut olim va tadqiqotchilari tomonidan o'quv yili davomida e'lon qilingan 757 ta maqolaning 65 tasi xalqaro, 172 tasi mamlakatimiz ilmiy jurnallarida chop etildi. Yil davomida 10 ta monografiya, 24 ta tavsiyanoma, 11 ta darslik va o'quv qo'llanmalar nashrdan chiqarildi.

Yoshlarga suyansak bo'ladi

— Har qanday millat taqdirini hamisha uning bilimli, iqtidorli yoshlari hal etgan. Bunga tarixdan misollar ko'p, – deydi institut rektori, professor Xudaynazar Yunusov. — O'zbekistonimizning ertangi kuni ana shu tayanchimiz bo'lgan yoshlarga bog'liq. Ular orasida ilm-fanni, o'z sohasini mukammal egallagan, iqtidor jihatdan dunyoning eng zo'r mutaxassislari bilan bellasha oladigan yoshlarimiz borligi doimo meni quvontiradi. Biz ulardan foydalanishimiz kerak. Ular o'z salohiyatini yurtimiz kelajagi uchun sarflashlariga sharoit yaratib berishimiz lozim.

Nomdor davlat stipendiyalari sohiblari, sport va san'at bo'yicha sovrindorlar, O'zbekiston va xalqaro musobaqalar g'olibi bo'lgan iqtidorli talabalarimiz ko'p. Ana shunday yoshlardan biri — Nurmuhammad Narziyevdir. Bu talabamiz yaqinda Xalqaro epizootik byuro (XEB) tomonidan dunyo miqyosida o'tkazilgan xalqaro tanlov — chellenjda mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasi bugun dunyoning eng global muammosi sifatida e'tirof etilayotgan bir paytda, hayvonlardan tarqaladigan va butun yer sayyorasida pandemiyaga aylanib, davlatlar iqtisodiyotiga katta zarar keltiradigan holatlarning oldini olishni maqsad qilgan bu kabi tanlovlarning ahamiyati juda katta.

Bilim amaliyotda mustahkamlansa...

Institutida joriy etilishi nazarda tutilayotgan yangi innovatsion g'oya — Ta'lim klasteri haqida ham alohida to2'xtalish mumkin. Bu loyiha ishlarni uzluksiz va tizimli tashkil qilishda ijobiy natija berdi.

O'tgan 2018-2019-o'quv yilidan boshlab institut turli xo'jaliklar, ishlab chiqarish korxonalari bilan shartnomalar imzolagan. Bu esa yuqori kurs, ya'ni 3- va 4-kurs talabalari o'quv-malaka amaliyotini ana shu xo'jaliklarda o'tashiga asos bo'lyapti. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalari tuzilishi va tarkibi qiyosiy tahlil qilinib, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari ta'lim oluvchilarning ko'proq kasbiy-amaliy malaka va ko'nikmaga ega bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilyapti. O'quv jarayonining nazariy qismi, ya'ni ma'ruzalar hajmi 40 foizdan 34 foizga kamaytirilib, amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari hajmi 60 foizdan 66 foizga oshirildi.

Bu nimaning hisobiga!? O'tgan o'quv semestridan boshlab, 1- va 2-kurslarda haftasiga 5 kunlik o'quv tizimi joriy etildi. Yangi 2020–2021-o'quv yilidan boshlab esa bu tizim barcha kurslarga joriy etiladi. Ammo bu ko'rsatkich ham yetarli emas. Ma'ruzalar va amaliy-laboratoriya 30 ga 70 foiz bo'lgan holatdagina kadrlar raqobatbardoshligini yanada oshirishimiz mumkin. Buga nomutaxassis bo'lgan fanlarni qisqartirish, qolaversa, nazariy kurslarni yanada ixchamlashtirish hisobiga erishishmiz mumkin.

Talabalar bir vaqtning o'zida olgan bilimlarini amaliyotda mustahkamlab borishsa, bu ularning sohaga qiziqishini yanada orttiradi. Qolaversa, bu ularning kelajakda ish bilan ta'minlanishi muammosiga ham yechim bo'la oladi.

Deylik, xo'jalik yo ishlab chiqarish korxonasida talaba muntazam amaliyot o'taydi, ko'nikma va malaka orttiradi. O'zining kimligini va nimalarga qodirligini isbotlaydi. Qarabsizki, o'sha korxona o'ziga kerakli mutaxassisni ishda olib qolishga intiladi. Yoki buning boshqa tomoni ham bor. Xo'jaliklarda ilmiy-tadqiqot olib borayotgan yosh ilmiy xodimlar o'zlarining ana shu izlanishlari samarasi bilan shu korxona rivojiga katta hissa qo'shishi mumkin. U yerdagi muammolarni o'rganib, unga yechim topishi osonlashadi.

— Albatta bundan, avvalo, o'sha xo'jalik yoki korxona katta manfaat ko'radi. Katta mablag' evaziga xorijdan mutaxassis taklif etishga ehtiyoj qolmaydi. Chunki oldida yetarli bilim va ko'nikmaga ega o'z mutaxassislari turganda, ulardan foydalanish arzonroq va samaraliroq bo'lishini his qiladi, — deya suhbatini davom ettiradi rektor Xudaynazar Yunusov. — Masalan, yaqinda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashabbusi bilan institutda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan veterinariya vrachlari va zootexniklar uchun turkiyalik mutaxassislar ishtirokida ikki haftalik o'quv-seminar tashkil etildi. Шunda qiziq bir vaziyatga duch kelindi. Talabalarimiz uchun amaliyot nechog'lik katta ahamiyatga ega ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik. Turkiyaliklarga o'quv mashg'ulotlari jarayonida mulyajlardan foydalanishlari mumkinligini taklif qilgandik, ular rozi bo'lishmadi. Ular darslarda faqat tirik hayvonlardan foydalanish lozimligini ta'kidlashdi. Biz albatta ularga sharoit yaratib berdik.

Imkoniyat bor. Intilsak bas

Prezidentimizning joriy yil 29-yanvardagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori chorva mollari naslchiligi, ularni ozuqa bilan ta'minlash, go'sht, sut va boshqa mahsulotlarni qayta ishlash borasida olib borilayotgan ishlarga yana bir huquqiy asos bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, xalqimizning bu mahsulotlarga bo'lgan talabi hamisha yuqori bo'lgan. Bugungi kunda ushbu talabni tabiiy manbalar hisobiga qondirish va ortganini eksportga chiqarish uchun sharoit va imkoniyatlar yetarli. Biroq ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarimizga xalqaro sertifikatlar olish va jahon bozorida o'z xaridorlariga ega bo'lishi uchun jiddiy harakat qilishni davr taqozo etmoqda. Shuningdek, chorvachilik xo'jaliklari va bu faoliyat turi bilan shug'ullanuvchilar uchun ajratiladigan subsidiyalar, ularga berilayotgan imtiyoz-imkoniyatlar va bu jarayonlarda davlat ulushining qisqartirilishi bu borada olib borayotgan islohotlarni yanada jonlantirmoqda, samaradorlikni oshirmoqda.

Xalqimiz dasturxoni to'kin, turmushi farovon bo'lishi mana shu harakatlarga bog'liq. Zero, ota-bobolarimiz ming yillar davomida qishloq xo'jaligi va chorvachilik bilan shug'ullanib kelishgan. Intilishi, qiziqishi, qolaversa, bilim va tajribasi bo'lgan kishi hech bir hadiklarsiz bu ish bilan shug'ullanishi mumkinligini bugun davrning o'zi ko'rsatmoqda.

Kelajakda "Ta'lim klasteri" joriy etilganda, bu ishlar o'z-o'zidan tizimli yo'lga qo'yiladi. Akademik litsey, texnikumdan boshlab oliy ta'lim muassasalari, universitet, ilmiy-tadqiqot institutlari, xo'jalik va ishlab chiqarish korxonalarining hamkorligi asosida rivojlanishning yangi bosqichi, ta'limning xalq xo'jaligidagi o'rni va roli yanada ortadi.

Bugun Samarqand veterinariya meditsinasi institutiga ko'plab mazkur soha olimlari, xalqaro ekspertlar kelib, yangi loyihalarni taklif qilmoqda. Biz bu loyihalarni amaliyotga joriy etish va samaradorligini oshirish yo'lidagi intilishlarimizni to'xtatmaymiz va umid qilamizki, tez orada bu o'z natijasini beradi.

Bugun va kelajak oliygohi

Yana bir e'tiborga molik voqea – professor-o'qituvchilarning ko'p yillik orzulari amalga oshdi. Institut hududida deyarli 35 yildan buyon qurilishi chala bo'lib yotgan yangi bino bu yil davlat dasturi asosida kapital rekonstruksiya qilinib, qurilishi yakunlandi. 25 milliard so'm mablag' evaziga qurilgan bu mahobatli binoda ma'muriyat va ikkita fakultet, laboratoriyalar markazi joylashadi.

Institut qisqa vaqt ichida dunyoning 84 ta yetakchi oliy ta'lim muassasasi bilan ilmiy va amaliy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Masalan, Yevropa va Rossiyadagi nufuzli oliy o'quv yurtlari, jumladan, Moskvadagi Skryabin nomidagi veterinariya meditsinasi akademiyasi, Temiryazev agrar universiteti, Latviya tabiiy fanlar va texnologiyalar universiteti, Belarus respublikasi Grodno universiteti, Vitebsk akademiyasi va boshqa ta'lim muassasalari bilan turli qo'shma loyihalar va almashinuv dasturlari doirasida amaliy hamkorlik qila boshladi. Ya'ni, talabalar muayyan muddatga mazkur xorijiy o'quv yurtlariga o'qishga yuboriladi, professor-o'qituvchilar malaka oshirish kurslarini ushbu hamkor muassasalarda o'taydi...

Bir so'z bilan aytganda, Samarqand veterinariya meditsinasi instituti bugun va kelajak oliy o'quv yurti deb tan olinmoqda. Bu iborani bekorga aytayotganimiz yo'q. Yaqinda institutga Belarus respublikasi "Belvetunifarm" ishlab chiqarish korxonasi mutasaddilaridan iborat delegatsiya tashrif buyurdi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida biofarmatsevtika dori mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinlarda turuvchi mazkur korxona mamlakatimizda xuddi shunday turdagi dori mahsulotlari ishlab chiqaruvchi Belarus-O'zbekiston qo'shma korxonasini tashkil etish va bu yo'lda Samarqand veterinariya meditsinasi instituti va Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutlarining olimlari va tadqiqotchilari bilan hamkorlik qilishni maqsad qilgan. Ular mana shu kalimani bot-bot takrorlashdi.

Xullas, kelgusida amalga oshirmoqchi bo'lgan rejalarimiz ko'p. Maqsad esa bitta — yurtimiz taraqqiyotiga ilm-fanda erishayotgan ulkan yutuqlarimiz bilan hissa qo'shish, oziq-ovqat xavfsizligi masalasida hukumatimiz va xalqimizga mutaxassis sifatida yaqindan ko'mak berish, qolaversa, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Demak, kelgusida yurtimizda chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishida mazkur ta'lim dargohi muhim vazifalarni bajaradi.

Ma'murjon QIYOMOV,
"Ma'rifat" muxbiri,
Gulchehra BERDIYOROVA,
SamVMI matbuot xizmati rahbari

Sinab ko'ring

Geografiya fani uchun PISA testlari

Geografiya eng qadimgi fanlardan biri sifatida kishilik jamiyatining ilk kunlaridan rivojlanib kelayotgan mantiqlar jamlanmasi. Inson xo'jalik faoliyatini yuritar ekan, hamisha unga geografik ma'lumotlar zarur bo'ladi.

Shunday ekan bugungi zamon geografiyasi ham tez rivojlanib borayotgan jahon xo'jaligini to'g'ri, aniq loyihalangan holda, ekologik soflikni saqlab, tejamkor tashkil etishning nazariy asoschilari hisoblanadi. Bu maqsadga to'laqonli erishishning poydevori umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib boriladigan o'quv mashg'ulotlari va ushbu mashg'lotlarning asosi hisoblangan o'quv materiallari — manbalari hisoblanadi.

Mamlakatimizda geografiya fanini o'qitish bilan bog'liq o'quv dasturlari va unga muvofiq rejalar, darsliklar, qo'shimcha ilmiy va ommaviy adabiyotlar, jurnallar, ko'rgazma vositalari, elektron darsliklar yaratilgan. Bu esa ta'limning yangi sifat bosqichini boshlab berdi.

Bunga qo'shimcha umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi sifatida quyidagi masalalar amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Geografiya tabiatdan xo'jalikda foydalanish amaliyotini ishlab chiqadi. Demak, darsliklarimizda o'quvchi yoshiga mos shunday masalalarga tayanaylikki, u o'quvchini o'ziga xos xo'jalik shakllari haqida mulohaza yuritib, loyihalar tuzishga undasin. Bir so'z bilan aytganda, ijodkorlikka chorlasin. Natijada o'quvchilar geografiya kundalik hayotimizning ajralmas hamrohi ekanligini tushunadilar, mantiqiy fikrlash darajalari o'sadi. Xo'jalik rejasi joy tabiati bilan chambarchas bog'liq bo'lishini anglaydilar, bashorat qilishni o'rganadilar.

2. Amaliy mashg'ulotlar tabiat qo'ynida bajarishga mo'ljallangan topshiriqlar bazasidan iborat bo'lib, mahalliy hudud geografiyasini kashf etishga undasin.

3. O'quv atlaslari, xaritalar va yozuvsiz xaritalar geografiya fanining eng muhim qurollaridir. Ularning o'rnini boshqa ko'rgazma bosolmaydi. Atlas, yozuvsiz xarita, topografik xarita har bir o'quvchi qo'lida bo'lishi zarur. Fikrimizcha, ushbu qo'llanmalarning erkin savdodan ijara tizimi safiga tortilishi o'rinli.

4. Mahalliy geografiyani o'rganishni kuchaytirish zarur.

5. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi (9-sinf) o'quv rejasini mamlakatlar haqidagi umumiy eng muhim ma'lumotlar bilan boyitish lozim. Masalan, mamlakat ta'rifi oldidan shu mamlakatning maydoni, aholisi, bayrog'i, pul birligi, boshqarish tizimi va boshqalarga qisqacha urg'u berilsin.

6. Darsliklarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni kengaytirish o'rinli.

Ta'kidlash joizki, geografiya darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini takomillashtirish uchun muammoli vaziyatlar asosida dars tashkil etish eng samarali usuldir. Masalan, 5-sinf "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi"da "Shamollar" mavzusi o'tilishi jarayonida birgina muammoli vaziyat butun mavzuni to'laqonli ochib beradi.

Savol: Dunyoning shimoliy yarimsharida qish mavsumi kuzatilmoqda. Demak, o'simliklar barg to'kib yalang'och holatga kelgan, fotosintez jarayoni to'xtagan. Tabiatga fotosintez jarayonigina kislorod yetkazib beradi. Bu paytda shimoliy yarimsharda kislorod manbayi nima bo'ladi?

O'quvchilar tomonidan ko'plab fikrlar aytiladi.

To'g'ri javob esa, janubiy yarimsharda bu paytda yoz fasli. Shamol kislorodni janubiy yarimshardan olib keladi.

Atmosfera bosimi yoki havo harorati mavzularida:

Savol: Tog'lar quyoshga yaqin bo'lishiga qaramay nima uchun tekisliklarga nisbatan sovuq?

Yog'inlar mavzusida:

Savol: Qish kunlari havo sovib ketadi. Suv bug'lanishi pasayadi. U holda yog'inlar qanday hosil bo'ladi?

Biz geografiya darslarini shunday muammolarga asoslanib tashkil etsak, PISA testlariga o'quvchilarni yaqinlashtirgan bo'lamiz.

An'anaviy test namunasi:

Tayga, aralash, keng bargli o'rmonlari katta maydonni egallaydigan, preriyalari bilan mashhur bo'lgan materik nomi?

A) Shimoliy Amerika
B) Janubiy Amerika
C) Afrika
D) Avstraliya

Ushbu testni **PISA** dasturi bo'yicha tuzilganda u turdosh fanlar o'rtasidagi aloqaga tayangan, hayotiylikka va mantiqiy uzviylikka bog'langanligini, tabiat zonalarining organik dunyosi chala ifodalangan rasmlar bilan boyitilgan tarzda berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Namuna: **1. 1. Shimoliy Amerika materigining organik dunyosi.**

Mashhur sayyohlardan biri Yer sharining katta quruqliklaridan biriga sayohat qilar ekan, joy tabiati haqida shunday hikoya qiladi: ushbu ulkan quruqlik tabiati bizning yashab turgan materik tabiatiga juda o'xshaydi. Tayga, aralash bargli, keng bargli o'rmonlarida yashnab o'sib turgan pixta, tilag'och, archalar bizning o'rmonlardagi daraxtlar bilan go'yo qon-qarindoshga o'xshaydi, biroq ulkanroq, salobatliroq ko'rinadi. Sayyoh qaysi materikka tashrif buyurgan?

A) Shimoliy Amerika
B) Janubiy Amerika
C) Afrika
D) Avstraliya

1. 2. Shimoliy Amerika materigining organik dunyosi.

Sayyoh qaysi materikdan tashrif buyurgan?

A) Shimoliy Amerika
B) Janubiy Amerika
C) Afrika
D) Yevroosiyo

1. 3. Shimoliy Amerika materigining organik dunyosi.

Sayyoh yashagan va tashrif buyurgan materiklarning organik dunyosi bu qadar o'xshashligi sabablarini qanday tushuntirasiz?

Javoblar:

➤ Qadimiy Lavraziya bo'laklari. Shimoliy Amerika va Yevroosiyo bir xil geografik kengliklarda joylashgan bo'lib, ularning iqlimi, fasliy almashinuvlari, tabiat zonalarining muvofiq joylashuvi, tuproq tiplari o'zaro mos keladi (4 ball).

➤ Evolutsion taraqqiyot barcha tirik organizmlar uchun umumiydir (3 ball).

➤ Qadimda hozir mavjud bo'lgan 6 ta materik avvaliga 1 ta Pangeo, keyinchalik 2 ta (Lavraziya va Gondvana) materikdan iborat bo'lgan (2 ball).

➤ Yer sharidagi barcha tirik organizmlarning hujayraviy tuzilishi o'xshash, ular tashqi muhit ta'sirida xilma-xillashgan (1 ball).

➤ Test matnida keltirilgan tabiat ko'rinishi barcha materiklar uchun xos (0 ball).

1. 4. Shimoliy Amerika materigining organik dunyosi.

➤ XX asrga kelib, Shimoliy Amerika materigida sanoat taraqqiy etdi. Natijada tabiat unsurlari — tuproq, yerosti va yerusti suvlari, atmosferaning gaz tarkibi jiddiy o'zgarishga uchradi. Oqibatda hikoyada keltirilgan maftunkor, ko'rkam deb ulug'langan organik olam vakillari hujayra va to'qimalarida olimlar tomonidan tirik organizmlar uchun zararli bo'lgan ayrim kimyoviy elementlar aniqlandi?

➤ Ekologik xavfni qanday bartaraf etish mumkin?

➤ Hozirgi kunda tabiatda sodir bo'layotgan bu nosozlik kuchli bo'ronlarga sabab bo'lmoqda. Ushbu mulohazaga qo'shilasizmi?

➤ O'simliklar dunyosi tuproq va yerosti suvlariga tayanadi. Ayrim tadqiqotchilar yerosti suvlarini tozalash bilan ushbu ekologik muammoni hal etish mumkin deb hisoblashmoqda. Bu haqida qanday fikrdasiz?

Doniyor MAVJUDOV,
Pop tumani XTB tabiiy fanlar metodisti,
Navro'za SOLIYEVA,
Pop tumanidagi 23-maktabning geografiya fani o'qituvchisi

Izlan, bolajon

O'quvchilarga matn, insho va bayon yozdirishda bir yoki ikkita ko'rgazma bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning ketma-ketligini bog'lagan holda bir-biriga mos ko'rgazmalardan foydalanish o'quvchining mustaqil matn tuzishi uchun birmuncha qulayliklarni beradi.

Masalan, "Qish" mavzusida bayon yoki matn tuzdirmoqchimiz. Buning uchun doskaga qish manzarasi tasvirlangan bir rasm ilib qo'yiladi. O'quvchilar rasmdan ko'rgan tasvirlariga qarab 3-4 ta gap tuzadilar. O'quvchilarning fikrlari to'xtab qolmasligi uchun doskaga mavzuga mos yana bir tasvir ilinadi. Navbatdagi tasvirga qarab o'quvchilar yana matnni davom ettira boshlaydilar. Fikrlarini bildirgach, mavzu bo'yicha 3-rasm ilinadi. Endi bolalar yanada kengroq fikr yuritib, matnni boyitishadi. Jarayonda ular tuzgan gaplar o'qitilishi va eng yaxshi gap tuzgan o'quvchilar rag'batlantirilishi mumkin.

Ushbu metoddan birgina "Qish" mavzusida emas, balki barcha mavzularda foydalansa bo'ladi. Faqat o'qituvchi mavzuga mos, o'quvchini izlanishga chorlaydigan rasmlar topishi talab etiladi. "Izlan, bolajon" metodini nafaqat iqtidorli o'quvchilar, balki bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ham darsdan tashqari mashg'ulotlarda olib borilsa, albatta, yaxshi natija beradi.

Xushvaqt IDIYEVA,
Vobkent tumanidagi 7-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

"Ma'rifat" kitobxoni – 2020" tanlovining birinchi yarim yili ham ortda qoldi. Shu vaqt davomida Toshkent, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, Buxoro viloyatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan o'quvchilar faol ishtirok etishmoqda. Biz bilan o'quvchilar o'rtasida ko'prik bo'layotgan o'qituvchilar — Xo'jayli tumanidagi 6-maktab o'qituvchisi Shirinay Abdujamilova, Termiz shahridagi 23-maktab o'qituvchisi Dildor Nurmuhammedova, Romitan tumanidagi 13-maktab o'qituvchisi Lobar Yoqubova, shu tumanning 33-maktab o'qituvchisi Shohida Hamroyeva, shu tumandagi 23-IDUM o'qituvchisi Madina Baxshilloyeva, Shofirkon tumanidagi 40-maktab o'qituvchisi Mohidil Po'latova, Oqqo'rg'on tuman agrosanoat va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji direktori Ulug'oy Xudoynazarova, Bog'ot tumanidagi 4-maktab o'qituvchisi Barno Bekiyeva, Jizzax shahridagi 9-maktab o'qituvchilari Dilafro'z G'oyibova hamda Umida Sarimsoqova kabi ustozlardan minnatdormiz. Ular vaqti ham o'quvchilari bilan masofadan ishlashni davom ettirishdi.

Ushbu sonimizda G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi tomonidan tavsiya etilgan "Jannati odamlar" asari bo'yicha fikr-mulohazalar bilan tanishing! Tanlov haqida @marifatkitobxoni telegram guruhida batafsil ma'lumot olishingiz mumkin!

Nomi qalblarda qoldi

Buvim: "Yo'l qurgan, ko'prik qurgan — katta savob bo'ladi!", deydi. Asarda nevarasining sevimli bobosi Erkavoy bobo shirin-shakar mevalar yetishtirib beruvchi bog'bon, qishloqdoshlari uchun ko'prik qurgan usta, Robiyabibi bilan birgalikda qishloq bolalarini odobli qilib tarbiyalovchi mohir tarbiyachi qiyofasida namoyon bo'ladi.

Asarni mutolaa qilish davomida goh bog'larda sayr qildim, goh "Odobli bola" o'yinida o'ynagandek bo'ldim. Erkavoy bobo ko'prik quraman deb betob bo'lganda, Rahmonberdining onasi Sorabibi ketganda, bog'-rog'lar kesilib yondirilganda, Erkavoy bobo vafot etganda kuyundim.

Asarni o'qib, "Yaxshidan bog' qoladi" degan naqlning naqadar to'g'ri ekanligiga amin bo'ldim. Elga yaxshilik qilgan odamlar xalq e'zoz-u e'tirofiga sazovor bo'ladilar. Ular garchi bu dunyodan o'tsa-da, xuddi "Erkacholning o'rigi", "Erkacholning ko'prigi"dek nomi boshqalar qalbida mangu muhrlanib qoladi.

Muxlisa ASATULLAYEVA,
Jizzax shahridagi
9-maktab o'quvchisi

Qayta-qayta o'qidim

Ushbu romanni oldin ham o'qiganimda yig'laganman, yana yig'ladim. O'qirkanman, Ch.Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi Mo'min chol va nevarasi ko'z oldimga kelaverdi. Beminnat xizmati bilan Erka boboga o'xshatdim-u, lekin qadrini o'xshatmadim. Rahmonberdi ham ota-onasiz o'sayotganligi jihatdan o'xshardi, lekin tevaragida mehribon odamlar ko'p edi. Ha, xalqimiz og'ir damlarda bir-biriga suyanchiq bo'lganiga guvoh bo'lamiz bu romanda.

Erka bobo mening bobomga ham o'xshaydi, tinmay har bahor ko'chat ekkani ekkan, yoz bo'yi hamma qarindoshlarga chelak-chelak o'rik beramiz. Ushbu romanni birinchi marta o'qiganimda Xoneshonni qidirib kelganlarida xuddi O.Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasidagi kabi Rahmonberdi ham bir nima deb, bir nima qilib qo'ymasin deb, yuragimni ushlab o'qidim. Otasi tengi qariyalarni kaltaklaganlarga biram nafratim qo'zidi, yosh go'daklarni sarson qilib otasiz qoldirganlari kammidi!

Bu roman har qanday kulfatlarda ham insoniylikni yo'qotmagan sodda, mehnatkash jannati insonlar haqida. Xudoga shukur, bugun namoz o'qish, janozaga borish cheklanmagan. Mustaqillik tufayli juda ko'p qadriyatlarimiz tiklandi.

Sevinchoy XUDOYBERDIYEVA,
Bog'ot tumanidagi
4-maktab o'quvchisi

Jannati odamlar

Eshon boboning o'n qop kitobi haqidagi mavzu menga juda yoqdi. Avliyo degani odamlarga mehr-shafqatli, yaxshilik qiluvchi, Ollohni esga soluvchi degani ekan. Avliyo qishloqdagi katta-yu kichikka bilim bergan. Hazratning bog'laridan anhor o'tgan bo'lib, o'sha anhordan kitoblar oqib kela boshlagan. Hazrat esa bu kitoblarning barini yig'ib tomga chiqib quritar ekan. Qoplar to'lganda qorong'i kechada qabristonga olib borib ko'mar ekan. Shu satrlarni o'qiganda ko'nglim juda buzildi. Kitoblarni oqizishganiga xafa bo'lgan edim-da. Eshon hazratlarining qilgan ishi esa olijanoblik. Tengdoshlarimga, katta-yu kichiklarga o'qib chiqishni tavsiya qilaman. Asarda keltirilgan har bir qahramon, ya'ni har bir odam jannati odam bo'lgan ekan. Qilgan ishlari, ezgu amallari ular bu yorug' olamni tark etsa ham, yillar davomida insonlarga beminnat xizmat qilib kelmoqda. Masalan, Erkavoy ota qurgan ko'priklar-u, ekib qoldirgan bog'-u rog'lari, hazratning qilgan ishlari, barchasi tahsinga sazovor. Yozuvchi asar nomini juda ham to'g'ri tanlagan ekan.

Muyassar YO'LDOSHEVA,
Oqqo'rg'on tuman agrosanoat va tadbirkorlik
kasb-hunar kolleji o'quvchisi

Ruhlari shod Erka bobo

"Jannati odamlar" asarining jajji va yoqimtoy qahramoni Rahmonberdining bolalik xotiralariga ham havas, ham achinish bilan qaradim. Bolakayning o'z davrida Erka bobo, Robiya buvi, Ahmadqul, Qambarali, Eshonqul bobolar kabi jannati odamlar bilan yashab, hamnafas bo'lganligiga havasim ortgan bo'lsa, mittigina jussasida shafqatsiz hayotning yetimlik yuki borligi qalbimda achinish hissini uyg'otdi. Besh yetimning boshini silash maqsadida qizi Sorabibini qarindoshiga uzatgan Erkachol Rahmonberdini o'z tarbiyasiga oladi. Ikki azamat o'g'lidan ayrilgan ota kemtik qalbini shu nevarasi bilan to'ldirmoqchi bo'lgandir, balki. Tun-u kun xalq g'ami bilan yashaydigan Erkabobo bog' yaratdi, ko'prik qurdi.

Mening katta bobom ham odamlarga foydasi tegsin deb qiyinchilik bilan yo'l ochgan. Bu yo'l hozir ham ko'pchilikning uzog'ini yaqin qilmoqda. U kishi ham Erka cholga o'xshab rahmatli bo'lgan. Asar taassurotlari ta'sirida o'ylab qoldim. Hamma jannati odamlar bir-biriga o'xshar ekan-a. Ajabmas, hozir Erkabobo va katta bobom jannatda birga yurishgan bo'lsa.

Gulirayhon G'IYOSOVA,
Shofirkon tumanidagi
40-maktab o'quvchisi

Erka cholda bobomni ko'rdim

Ushbu kitobni o'qir ekanman, o'zimning mehribon bobojonim ko'z oldimga keli. U ham erka chol kabi tinib-tinchimas, mehribon edi. Bobom kimyo va biologiya fanidan dars bergan. So'ng maktabda direktorlik qilgan. Xalq ta'limi a'lochisi bo'lgan. Sakson to'rt yoshida ham uncha-muncha yoshlar qilolmaydigan ishni qilardi. Bir qarasam, yer chopiq qilar, bir qarasam, mollarga xashak berardi. Besh vaqt namozni ham o'z vaqtida ado etardi. Kunduzlari mehnat, tunda kitob mutolaa qilardi. Bobomning uyi orqasida juda chiroyli bog'i bor. Unda anvoyi gular, mevali va manzarali daraxtlar juda ko'p. Bog'ga kirgan odamning bahri-dili ochiladi. Undagi olma daraxti hammaning diqqatini o'ziga tortadi. Chunki bitta daraxt uch xil meva beradi. Bir shoxi qizil olma bo'lsa, bir shoxi tilladek sap-sariq, yana bir shoxida esa yashil va nordon meva. Biz har safar mana shu olma tagida bobom bilan uzoq suhbat qurardik. Bobojonim har doim menga o'qishim kerakligini, doimo yaxshilik qilishimni uqtirardi. Bobomni juda yaxshi ko'rardim. "Jannati odamlar"ni o'qirkanman, uni sog'inganimni his qildim. Ko'zimga yosh quyilib kelaverdi. Bobom 2019-yil 23-dekabrda bizlarni tark etdi. Xuddi Rahmonberdining bobosi Erkachol singari. Eng katta orzulari Haj ziyoratiga borish edi. Shunga atab pul ham yig'gandilar. O'sha yili qishda yog'ingarchilik ko'p bo'lib, qishloqdagi masjidning oyoq tagi juda loy bo'lib ketdi. Bobom yig'gan pullariga o'sha masjidga o'z qo'llari bilan chiroyli qilib tosh terib bergan. Bobojonim o'zidan yaxshi nom, chiroyli bog', juda ko'p shogirdlar qoldirdi. Ishonamanki, mening bobom ham jannatlarda yuribdi.

Elbek ILHOMOV,
Romitan tumanidagi
23-IDUM o'quvchisi

Oramizdagi jannatilar

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Jannati odamlar" romanini o'qish davomida o'zbek xalqi naqadar mehribon hamda olijanob ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim. Inson har doim bir-biriga yordam berishi kerak. Roman qahramonlari o'zida borini boshqalar bilan baham ko'ruvchi, saxovatpesha insonlar. Asar qahramonlarining bir-biriga ko'maklashishi, bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilishi, eng asosiysi, bir oila bo'lib yashashi bizning, haqiqiy o'zbek xalqining qanchalik birdam ekanligining yaqqol namunasidir.

Jannati odamlar hali ham oramizda yashamoqda. Bilamizki, yaqinda Sirdaryo viloyatida yuz bergan suv toshqini va Buxorodagi tabiiy ofat oqibatida qanchadan qancha oilalar boshpanasiz qoldi. Ayni shunday og'ir kunlarda xalqimiz o'zining naqadar saxovatli va bir-biri uchun qayg'uradigan xalq ekanligini yana bir bor isbot qildi. Tabiiy ofatlar oqibatida aziyat chekkan odamlarga xalqimiz yordam qo'lini uzatmoqda. Ularni yolg'iz qoldirishmayapti. Hech shubhasiz, boshqalarning g'amini yeydigan, ko'maklashayotgan insonlarni tom ma'noda oramizdagi jannatilar deb atashimiz mumkin. Yordam qilganlar ham, yordamni qabul qilganlar ham behad mamnun.

"Qiziq, odam bolasi dunyoga kelarkan, yasharkan, vaqti kelib yana kelgan tomonga ketarkan-u, lekin, baribir, birining nomi sarg'ayib pishgan behilarda, birining nomi shirin-shakar uzumlarda, boshqasining ruhi peshtoqi baland masjidlarda yashar ekan… O'lmas ekan. O'lim yo'q ekan". Ushbu misralarni o'qib, o'yga toladi kishi. Demak, el-yurt uchun foyda keltiradigan amallar bajarilsa, insonlar uning nomini, qilgan ezgu ishlarini unutmas ekan. Xuddi Erkachol, Xoneshonlar kabi xalq orasida nomi abadiy yashaydi. Yaxshi insonlarni xalqi ham qadrlaydi, e'zozlaydi. Ezgu fazilatlarni o'rgatgani uchun "Jannati odamlar"dan minnatdorman.

Asror XO'JAYEV,
Termiz tumanidagi
9-maktab o'quvchisi

Charos YOQUBOVA tayyorladi.

Bu yer turistik zona, obod bo'lishini, bu makonga olib keladigan alg'ov-dalg'ov yo'llar ta'mirlanishini, atrofi o'rab olinib "Varaxsha yodgorligi" degan bittagina yozuv va belgilar qo'yilishini barchamiz juda-juda xohladik.

Varaxsha kengliklarida

(esse)



Yanvar oyi oxirlarida o'quvchilar bilan yo'lga otlandik. Havo iliq. Ikki kun oldin qor yo'gib o'tgan bo'lishiga qaramay, erib bo'lgan. Avvaliga biz boradigan joyni ma'lum bir qismi saqlangan shahar deb tasavvur qildim. Yo'lda yastanib yotgan cho'l, adirlardan o'tib borarkanmiz, tarix fani o'qituvchimiz Nargiza opa ma'lumot bera boshladilar. "Varaxsha shahri qoldig'i Buxorodan 40 km uzoqda joylashgan bo'lib, Jondor tumani hududiga kiradi.

Uning maydoni 9 ga va balandligi 10–20 metrli ulkan tepa shaklida saqlangan. Ma'lumotlarga qaraganda Varaxsha yodgorligi mil.avv. II — milodiy XII asrga oid bo'lib, Xorazm va Buxoro oralig'idagi karvon yo'li ustida joylashgan. Varaxsha saroyida bo'rtma tasvirlar mavjud. Varaxsha yodgorligi arxeologik jihatdan yaxshi tadqiq etilgan. Suratlar haqida yozma ma'lumotlar mavjud bo'lib, rus olimlari V.A.Shishkin 1937–1938-yillarda, o'zbek olimi A. Muhammadjonov 1975–1977-yillarda tadqiqot va qazilma ishlarini olib borishgan. Arxeologik qazishmalarning guvohlik berishicha, shahar mil.av. II asrda qad ko'targan. Devorlarining qalinligi 2 metrgacha, qariyb xom g'ishtdan qurilgan. V asrdan boshlab Buxoroning qadimiy hukmdorlari Buxorxudotlar qarorgohi bo'lib, bu davrda gullab yashnagan. Har o'n besh kunda Varaxshada bir kunlik, yil oxirida 20 kunlik bozor sayili, ya'ni (dehqonlar yangi yili) o'tkazilgan. Ushbu shahar XII asrgacha mavjud bo'lgan".

Xayolim avtobus derazasidan oltinrang tus olgan yantoqzor cho'l tomon uchadi. Bugun XXI asr. O'n to'rt asr oldingi hayot haqida o'ylab ketaman. O'shanda ham insonlar yashagan, kulgan, o'ynagan, yig'lagan. Buxoroning qadim tarixi, ayniqsa podshoh saroylari azal-azaldan meni o'ziga rom etgan. Varaxsha hududiga kirib borar ekanmiz, dimog'imizga yoqimli ifor uriladi. Yastanib yotgan cho'l kechagina yog'ib o'tgan qor taftidan bosilib, baquvvat tuproqlari bilan dam olayotganga o'xshab ko'rinadi. Namchil, toza, iliq shabada esib, dimog'imizni qitiqlaydi.



Sabo, bizdan xabar ber shohga,
Mehmon keldi degin shodlanib.
Romitanning nashidasidan –
Xabar olib borgin otlanib.
Men bilaman, go'zal malika
Humo kabi chorlaydi turib.
Va'z o'qiydi necha shoyonlar–
Yuraklarim ketar hapqirib.
Atrofimda o'ttiz qorako'z,
Jovdiraydi shohga termulib.
Tillarimda qotib qolar so'z,
Ulug' baxtdan muzaffar bo'lib...
Kutgandingmi meni, Varaxsha,
Men Ozodlik farzandiman, tur.
Nuramagin, men kabi yasha,
Sen tarixsan, kelajaksan, bil!..

Abtobusimiz to'xtab, zavq-shavq bilan birin-ketin tushib kelamiz. — Voy, — deydi bir o'quvchim, — tarixni qarang-a! Bir paytlar shu yerlarda shahar va unda ark, qasrlar bo'lganiga hech kimning ishongisi kelmaydi...

Namchil yulg'unzorlarni bosib-bosib yurib boramiz. Ulkan tepaliklar, g'orga o'xshash uylar, eshiksifat ravoqlar qadim Buxoroning eski uylarini, uzun zallarini eslatadi menga. Nargiza opa og'ir, vazminlik bilan o'quvchilarga saboq berishni boshlaydi. Yillar zalvoridan omon qolgan shahar xarobalaridan endi faqat uyum tepaliklar, bosh egib turgan, nuragan devorlargina qolgan. Yaqinda yog'ib o'tgan qor bu yerda hali ham saqlangan. Devorlarning usti ulkan tepaning qirralarida yaltirab ko'rinadi. Asta-sekin yuqoriga ko'tarilamiz. Sayohat davrida bu yil birinchi marta saboq berayotgan o'quvchilarimga juda yaqinlashib qolganday sezaman o'zimni...

Mana Varaxsha. Qadim Varaxsha. o'pkamni to'ldirib nafas olaman. Toza havodan to'yib-to'yib qonaman. Ko'nglim ochilganday bo'ladi. "Rostdan ham bu yerning ob-havosi juda boshqacha ekan" deb qoladi Nargiza opa.

Mening esa ko'nglim Humo qushi kabi kengliklarda sayr qilib uchgisi kelardi...

Uch, ko'nglim, Humoday jo'shqin, mayin uch,
Uch, ko'nglim, tarixni, samolarni quch.
Oh, tarix zarbidan nuragan devor,
Kengliklar, do'ngliklar, dunyolarni quch.
Uch, ko'nglim, moziyning eshiklariga,
Bayramda jo'r bo'lgin qo'shiqlariga.
Ulkan karvon kelar, xabar ber shohga,
Uch, ko'nglim, ogoh bo'l, yiqilma chohga.

Ulkan tepada qolgan 4-5 kichik uy va eshiksimon devorlarni ko'rib hayratim yana oshadi. Devor g'ishtlari shunday mustahkamki, mana qariyb necha asrdan buyon kimni kutayotgan ekan? O'zimcha osori antiqalarni ko'rishni, ularni topishni xohlayman. Faqat devordagi bo'rtma teshiklar diqqatimni tortadi. Bu o'sha biz suratlarda ko'rgan bo'rtma tasvirlarga o'xshaydi. Biz ko'rgan tasvirlarni olimlar aniqlab bo'lishgan, ularda fillar ustida shohlar, yonida go'zal malikalari. Ularning yuzlari ochiq va go'zal. Shunchalik go'zal tasvirlanganki, azal-azaldan Buxoroning qizlari shunday go'zal bo'lganiga imoningiz komil bo'ladi. O'shanday bo'rtma tasvirlarni biz ham ko'rishga intilamiz. Kichik uylarda ravoqlar ham topiladi. "Ular otashparastlik, ya'ni zardushtiylik diniga sig'ingan bo'lsalar kerak. Chunki biz internet orqali ko'rgan rasmlarda otashgohlar ham bor edi...", deydi bir o'quvchi. Qariyb ikki soat davomida bu yerni aylandik. Tepalik ustidan atrofni kuzatish juda zavqli. Yulg'unzorlar, ba'zan saksovullar va yantoqlar bilan o'ralgan olovrang cho'l ko'zlarimni yondiradi. Yurakdagi tuyg'ularim, sog'inchlarim bu yerda bir paytlar sening ajdodlaring yashab o'tgan, deb nola qilgandek bo'ladi. Men esa bu yerda shahar, saroy bo'lgan bo'lsa, ularning qabrlari qayerda ekan deb tuyg'ularimga savol beraman. Bir kuni bu savollarimga javob topishni istayman... Juda istayman. Bu yer turistik zona, obod bo'lishini, bu makonga olib keladigan alg'ov-dalg'ov yo'llar ta'mirlanishini, atrofi o'rab olinib "Varaxsha yodgorligi" degan bittagina yozuv va belgilar qo'yilishini barchamiz juda-juda xohladik. Mana shunday ulug' niyatlar bilan uyga qaytishni ko'zladik. Ko'nglim esa bu yerda yana uchgisi kelgandek, ketgisi kelmas, Varaxsha esa yana o'zi yolg'iz qolgandek, juda mahzun ko'rinardi menga... Men esa qo'shiq aytib, u bilan xayrlashdim:

Seni ko'rdim, tanidim seni,
Ko'zlarimga boqding ko'p mahzun.
Nurayotgan shu devorlaring
Tarixingdan so'yladi uzun.
Sen ham menga vatansan, elsan,
Buxoromsan, bitta bo'lagi.
Xohlardimki bilishsa seni
Farzandlarim, shogirdlar qalbi.
Seni ko'rdim, angladimmi, lek,
Men bilmagan sinoating ko'p.
Urushlarning qatidan omon
Qolgan izlaringni o'payin.
Topib oldim singan sopolmi,
Yoki qalbing siniqlarini.
Ziyoratim qabul qilgin, tur,
Qadding bukma, sen ham mag'rur tur!..

Madina BAXSHILLOYEVA,
Romitan tumanidagi 23-IDUM
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Hali ulgurmagan bo'lsangiz, vaqtni ketkazmang!

Farzand dunyoga keltirib, uning tarbiyasini bog'cha, keyin maktabga yuklab qo'yayotgan ota-onalar yo'q emas. Bu e'tiborsizlik sababini so'rasangiz, uy ishlari, tirikchilik bilan band ekanini aytishadi. Aslida tirikchilik sababchisi farzandlarimiz emasmi?! Bolaning qornini to'yg'izish bilan ish bitmaydi-ku. Axir hayvonlar ham bolasi uchun yemak topadi, uni avaylab katta qiladi. Insonning bu borada zimmasidagi yuk juda og'ir. U nafaqat farzandlarini boqishi, balki yaxshi tarbiya berib jamiyatga nafi tegadigan inson qilib voyaga yetkazishi kerak. Yo'qsa uning hayvondan farqi qolmaydi.

Farzand tarbiyasidagi fikrlarni "siyqasi chiqqan" deyishingiz mumkin, lekin o'sha siyqasi chiqqan gaplarning hammasiga ham amal qilmaymizda.

Hozir aytmoqchi bo'lganlarim hammamizga yaxshi tanish gaplar. Mana shular tarbiyaning avvali hisoblanadi. Shu orqali bolada to'g'ri yashash, mehnatsevarlik, bilim olishga ishtiyoq, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi tushunchalar shakllanadi:

— Tana gigiyenasi — tana tozaligi (soch, badan, tishlar va tirnoqlar).

— To'g'ri ovqatlanish — nonushtada ko'proq sutli mahsulotlar, tushlik va kechga yengil hazm bo'luvchi taomlar.

— Fiziologik rivojlanish — qomat tikligi, yelka to'g'riligi, oyoqlarning to'g'ri rivojlanishi.

— Kommunikativ tarbiya — bolaning oila va atrofdagilar bilan muloqoti (ota-ona, aka-singillar o'rtasidagi do'stona munosabat, maktabdoshlari, ustozlari va mahalladoshlari bilan iliq munosabat).

— Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya — ota-ona va oiladagi yoshi ulug'larning kitob, gazeta, jurnallarni mutolaa qilishga munosabati o'qiganlaridan xulosa qilib, bolalarga singdiradigan ijobiy fikrlari. "Ustoz — otangdek ulug'" kabi hikmatli fikrlarni oilada tez-tez ishlatib turish).

— Ijitimoiy tarbiya — bolani jamiyatga yo'naltirish (bolaga "do'stlik" tushunchasini singdirish. Ma'naviy tarbiya beruvchi manbalardan bola tarbiyasi uchun foydalanish).

— Ekologik tarbiya — tabiatning dunyodagi jamiyki o'simliklar, hayvonlar va insonlar hayot kechirishi uchun muhim ekanini uqtirish. Tabiatni asrashga o'rgatish.

— Huquqiy tarbiya — oilada, ko'cha-ko'y va ta'lim muassasalarida mavjud tartib-qoiadalarga amal qilishni o'rgatish.

— Siyosiy-iqtisodiy tarbiya — oilaning moliyaviy holatini bolaga to'g'ri tushuntirish. Gaz, suv, elektrni tejash.

— Vaqtni bekorga o'tkazmaslikni talab qilish. Har tongdan kechgacha bo'lgan vaqtni rejalashtirishni o'rgatish va odatga aylantirish.

Bu fikrlarni yakun toptirish mushkul. Tarbiya borasidagi mazkur harakatlarni siz allaqachon boshlab yuborgan bo'lishingiz mumkin, agar hali ulgurmagan bo'lsangiz, vaqtni boy bermang.

Sevara YANDASHEVA,
Chust tumanidagi
64-maktab o'qituvchisi

TOSHKENT SHAHAR SIRG'ALI TUMANIDAGI 300-DAVLAT IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMTA'LIM MAKTABI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash doirasida 2020-2021-o'quv yili uchun

5-SINFLAR KESIMIDA

"KIMYO VA BIOLOGIYA"

fanlariga o'zbek tilida ixtisoslashtirilgan sinf ochiladi.

O'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadi.

Hujjatlarni qabul qilish boshlandi.

Muddati — 2020-yil 10-sentabrgacha.

Manzil: Sirg'ali tumani, 7-mavze, Jahonaro ko'chasi, 15-"a" uy.
Tel: (71) 251-33-03.

Esanov Azamat Shernazarovichning 06.02.03 — Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Golshtin genotipli tana va g'unajinlarni parvarishlash hamda sermahsul sigirlar podasini takomillashtirish texnologiyasi" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 17-sentabr kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag-info@edu.uz

G'afurov Aziz Tulkunovichning 08.00.13 — Menejment ixtisosligi bo'yicha "Shisha sanoati mahsulotlarini differensiatsiyalash strategiyalarini ishlab chiqish (O'zbekiston shisha korxonalari misolida)" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 4-sentabr kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-43-51; e-mail: rector@tsue.uz

Muminov Sherzod Xolmirzayevichning 08.00.07 — "Moliya, pul muomalasi va kredit" ixtisosligi bo'yicha "Bozor mexanizmlari asosida suv xo'jaligi tizimini moliyalashtirish metodologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) (DSc) dissertatsiyasi himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yilning 4-sentabr kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-71, 239-43-51; e-mail: tsue@tsue.uz.

Erkayeva Nazokat Aktamovnaning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyo resurslaridan sintetik yuvish vositalari olish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 8-sentabr kuni soat 15:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"a" uy.
Tel/faks: (71) 262 56 60, 262 79 90; e-mail: ionxanruz@mail.ru.

Tursunova Ravshanoy Artikjanovnaning 17.00.02 — Musiqa san'ati ixtisosigi bo'yicha "G'arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi" mavzusidagi (san'atshunoslik fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.San.54.01 raqamli ilmiy kengashining 2020-yil 10-sentabr kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (71) 239-46-53, 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning *http://himoya.bimm.uz* **platformasi va Zoom dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.**

Toshkent shahridagi Chilonzor pedagogika kolleji faoliyati 2020-yil 2-sentabr sanasidan TUGATILADI.

Da'vo va arizalar e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy ichida Chilonzor tumani, Qatortol-2 ko'chasi, 38-"a"uyda qabul qilinadi.

Murojaat uchun tel: (71) 216-31-73, 216-32-77.

2019-yil 28-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademyasi kasbiy tayyorgarlik fakultetiga kirib, Davlat attestatsiya komissiyasining 2020-yil 28-fevraldagi qaroriga asosan "Maxsus operatsiyalarni amalga oshirish" faoliyati yo'nalishi bo'yicha Ergasheva Madina Rahmonjon qiziga 2020-yil, 29-fevralda berilgan A № 000900 raqamli diplom yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Toshkent shahar Chilonzor tumani 1-son davlat notarial idorasi tomonidan 2018-yil 28-dekabrda Xudaybergenova Xolida Basitovna nomiga hadya shartnomasi asosida o'tkazilgan Chilonzor tumani 16-mavze, 1-uy, 13-kvartira Toshkent shahar yer tuzish va ko'chmas mulk kadastri davlat korxonasining Chilonzor tumani filialida 2019-yil 9-yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan. Mazkur kvartiraga tegishli bo'lgan kadastr hujjati yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI.

2019-yili Qibray qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejini "Transportlarda tashish va boshqarishni tashkil etish (avtomobil transporti) texnologi" ixtisosligi bo'yicha tamomlagan Dadajanov Botir Axad o'g'liga berilgan № AV 5107555 raqamli diplom va ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi 42-umumiy o'rta ta'lim maktabi tomonidan 2019-yilda Abdullayev Axror Olimjonovich nomiga berilgan UM № 0271488 raqamli umumiy o'rta ta'lim to'grisidagi ATTESTAT yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasi professori, tarix fanlari nomzodi

Ne'mat POLVONOVning

vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga ta'ziya bildiradi.

Raqsga oshufta yurak

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning yozishicha, "San'at ahlining nafasi bir o'tdirkim, quruq ko'zni yoshlatur, yumshoq ko'ngilni yig'latur". Ammo bunday mahorat, bebaho fazilat hammaga ham nasib etavermaydi. Shu sababli san'at sohasida muayyan yutuqqa erishgan insonlar xalqimiz tomonidan doimo e'tirof etiladi, ardoqlanadi. Uzoq yillar davomida olib borilgan sermashaqqat mehnat evaziga olingan bebaho boylik – bilim va san'at sirlarini kelgusi avlodlarga yetkazib bera oladigan insongina el-yurtida doimo e'zozlanadi.

San'atda fidoyilik avloddan-avlodga o'tishi yoki tarbiya jarayonida shakllanishi mumkin bo'lgan xislatdir. O'zbek xoreografiya san'atining yetuk namoyandasi, baletmeyster-pedagog, zahmatkash ustoz, "Shuhrat" medali sohibi, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori Shuhrat Toxtasimovni el e'tiboriga sazovor qilgan fazilat ham ana shu ikki omil mahsulidir.

1960-yili Toshkent shahrida Mahmudjon aka va Mukambarxon aya xonadonida dunyoga kelgan Shuhratjon yoshligidan san'atga oshno bo'ldi. Ota-onasi boladagi bu qobiliyatni, qiziqishni o'z vaqtida payqab, qo'llab-quvvatladilar. Bu esa uning muvaffaqiyatga erishishiga yo'l ochib berdi. Shuhratjon akasi Ma'rufjon, ukasi Olimjon bilan juda inoq, bir-biriga mehr-oqibatli bo'lib o'sdi. Shu bois o'z farzandlari Komilaxon va Alisherjonlarni ham ana shunday ruhda ulg'aytirmoqda.

San'atga bo'lgan qiziqish uni Toshkent xoreografiya bilim yurtiga yetaklab keldi. U yerda sohaning yetuk mutaxassis-pedagoglari T.A.Smakina, K.A.Galetko, G.V.Ijitsskiy, I.M.Protsenko sinfida boshlang'ich xoreografiya san'ati sirlarini o'rgandi. 1978–1980-yillarda harbiy xizmatdan so'ng, Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta opera va balet teatrida balet artisti sifatida o'z faoliyatini boshlaydi. Mana shu dargohda u milliy va jahon xoreografiya san'ati sirlari bilan yaqindan tanishdi, dunyo xalqlari raqs san'atidan boxabar bo'ldi. Ammo intiluvchan raqqos bilim va ko'nikmalari yetarli deb hisoblamas, soha bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni istardi. Shu maqsadda 1984-yili A.V.Lunacharskiy nomidagi Moskva davlat teatr san'ati institutining xoreografiya fakultetiga o'qishga kiradi. Mazkur institutdagi ta'lim hayotida o'chmas iz qoldirdi: bilimi yanada chuqurlashdi, raqs san'atining sir-asrorlarini chuqur o'rgandi, kasbiy mahoratini yanada oshirdi, natijada shu sohadagi yetuk kadrlardan biriga aylandi.

1988-yil qadrdon bilim yurti bag'riga qaytib, "Klassik raqs" fani o'qituvchisi sifatida ish boshladi. O'tgan yillar mobaynida pedagogik faoliyati bilan birgalikda mazkur dargohda bo'lim boshlig'i vazifasida ishladi. Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi tashkil etilgach, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga bosh-qosh bo'ldi, "Xoreografiya" kafedrasi mudiri lavozimida ham samarali mehnat qildi.

Respublikamizda milliy raqsni rivojlantirish, professional va havaskorlik raqs jamoalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga munosib hissa qo'shdi. Bu sohaning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib bordi, joylarda ko'rik-tanlovlar o'tkazilishiga, iste'dod egalarining kashf etilishiga e'tibor qaratdi. Shu xizmatlari e'tirof etilib 2012-yilda u Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi rektori etib tayinlandi.

Shuhrat Toxtasimov rektorligi davomida ta'lim va tarbiyaning uzviy birligiga jiddiy e'tibor qaratdi: oliy maktabda magistratura mutaxassisligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlana boshladi, qabul kvotalari oshirildi, xorijiy aloqalar yo'lga qo'yildi, MDH davlatlaridagi bir qator turdosh oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Kafedra dotsenti sifatida ham samarali mehnat qildi, bir qator fan dasturlari va soha adabiyotlarining yaratilishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda. U o'quvchi va talabalarga nazariy hamda amaliy yo'l-yo'riqlar berib borish bilan birga har bir mashg'ulotni yuqori saviyada tashkil qila oladi. Intiluvchan yoshlarni doimo qo'llab-quvvatlab, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda qo'lidan kelgan yordamini ayamaydi. Shu bois uning shogirdlari bugungi kunda turli jabhalarda jonbozlik ko'rsatib kelishmoqda.

Shuhrat Toxtasimov pedagogik va rahbarlik faoliyati bilan birgalikda respublika miqyosida nishonlanadigan Mustaqillik, Navro'z bayramlari hamda turli ommaviy tadbirlar, festivallarning tashkiliy-ijodiy guruhi tarkibida ishtirok etadi. Shuningdek, respublika va xorijiy mamlakatlarda xoreografiya san'ati yo'nalishida o'tkaziladigan nufuzli ko'rik-tanlov va festivallarda hakamlar hay'atining doimiy a'zosi hisoblanadi. Uning bunday zahmatli mehnati e'tirof etildi: 2002-yilda Sh. Toxtasimov "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Shuhrat Toxtasimov o'zbek milliy raqsi va umuman xoreografiya san'atining rivoji uchun to'xtovsiz harakatda, doimiy izlanishda bo'lgan rahbarlardan sanaladi. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda xoreografik ta'limni yanada takomillashtirish, jahon andozalariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash maqsadida o'quv jarayonini jiddiy isloh qilish lozimligini anglab yetib, bu masalani yuqori doiralar kesimida hal etish chora-tadbirlarini ko'rdi. Natijada 2020-yil 4-fevraldan boshlab Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etildi. Hozirgi kunda mazkur akademiya yangi binoda, raqs san'ati uchun barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan holda faoliyat olib bormoqda.

Fidoyi va zahmatkash ustoz, serqirra rahbar, samimiy inson Shuhrat Toxtasimovni qutlug' yoshi bilan samimiy muborakbod etib, uzoq umr, tani sihatlik, xotirjamlik, oilaviy baxt hamda uzoq yillar davomida oilasi va xalqimiz ardog'ida yurish nasib etishini tilaymiz. Shuningdek, millat va til tanlamaydigan mo'jiza hisoblanmish raqs san'atini yosh avlodlarga go'zal an'analar shaklida yetkazishda omadlar yor bo'lsin deymiz.

Ravshan JOMONOV,
Nozimjon QOSIMOV,
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professorlari

Chinakam fidoyi ustoz

"Xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishonini olgan muallim — Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi 8-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi Nozim Ashurovni qutlash uchun borganimda, sevimli va qadrli ustozim Omon Mustafoyevni esladim. Omon aka yuqori sinflarda bizga matematikadan saboq bergandi. Muallimning har bir darsi qiziqarli edi. Sababi, biz bu darslarda o'zaro musobaqalashar, doim bir-birimiz bilan raqobatda bo'lardik. Hatto sinfdoshlarim bilan kechalari ustozning uyida yotib qolib, dars tayyorlardik.

Nozim Ashurovni ko'rishga borib, Olim akani bejiz yodga olmadim. Chunki bu ikki muallimning bir-biriga juda o'xshash jihatlari bor. Ulardan biri — fidoyilik. Nozim Ashurov fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan yuqori sinf o'quvchilari uchun o'z nomidagi stipendiyani joriy qilgan. U 50 yildan oshiq vaqt davomida G'ijduvon tumanidagi ta'lim dargohlarida ishlab, ko'plab shogirdlar yetishtirdi. Oxirgi 14 yilda bir maktabda yelkadosh bo'lib ishlayotgan Yorqinoy Tagirova, Maxfirat Farmonova, Oydinoy Fayziyeva ustozining o'git, saboqlaridan bahramand bo'lib faoliyat olib borishmoqda.

80 yoshida ham shogirdlari bilan yonma-yon ishlab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, yosh avlodga ingliz tilidan saboq berayotgan Nozim Ashurov maktabdagi barcha o'qituvchi-yu o'quvchilarning faxriga aylangan.

— Ba'zida ayrim o'yinqaroq, dangasa o'quvchilar keksa ustozning xotirasini sinash uchun uyga vazifa borasida turli bahonalar bilan chalkashtirmoqchi bo'lishadi, ammo o'zlari pand yeb qolishadi, — deydi ingliz tili fani o'qituvchisi Maxfirat Farmonova.

Mehnatlari uchun munosib taqdirlangan ustoz bilan uzoq suhbatlashdik. U yaqin yillargacha o'qituvchi va o'quvchilarning qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinganini eslab, hozirgi paytda ta'lim sohasida yaratilayotgan sharoitlardan ruhlanib gapirdi. Bunday sharoitda o'qituvchilar kuch-g'ayrat bilan qancha mehnat qilsa ham, arziydi, deya qayta-qayta takrorladi ustoz.

Shunday jonkuyar ustozlar hamisha bor bo'lsin, ularning shogird va izdoshlari ko'paysin.

Shoira RAHMONOVA,
jurnalist

Faxriylar — faxrimiz

O'zbekistonlik kurashchilar sardori

O'rta bo'yli, miqtigina Po'lat Jo'rayev Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda tug'ma nogironligi tufayli Toshkentning O'qchi dahasidagi kar-soqovlar jamiyati tasarrufidagi maxsus kasb-hunar bilim yurtida ta'lim oldi, duradgorlik kasbini egalladi. Yoshlik chog'laridanoq jismoniy tarbiya, yunon-rum kurashi, erkin kurash bilan tinmay shug'ullandi. Bu sohaning yetuk murabbiylari nazariga tushdi.

Nihoyatda tirishqoqligi, jismoniy baquvvatligi bois qisqa fursatda sport ustasi unvoni talablarini muvaffaqiyatli bajardi. 1968-yili mamlakat chempioni bo'ldi, 52 kilogramgacha bo'lgan vaznda 1972-yilgacha o'tkazilgan paralimpiya musobaqalarida bir necha bor oltin nishon sohibi bo'ldi. Jumladan, Eron, Fransiya, Shvetsiya, Germaniya, Italiya, Bolgariyada bo'lib o'tgan xalqaro musobaqalarda faol ishtirok etib, oltin medallarni qo'lga kiritdi. 1973-yili Shvetsiyaning Malmyo shahrida bo'lib o'tgan XII paralimpia o'yinlarida g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi.

Xalqaro maydonga chiqib, turli mamlakatlarda o'tkazilgan nufuzli sport musobaqalariga borganida yonida doimiy hamkori, sadoqatli rafiqasi Mashhuraxon unga maslakdosh, tarjimon bo'lgan. Uning vositachiligi bilan qilgan o'zaro suhbatimiz chog'ida Po'latjon Jo'rayev Shvetsiyada bo'lib o'tgan o'sha tengsiz kurash taassurotlari bilan o'rtoqlashdi:

— O'zimning kar-soqovligim yetmaganday, O'zbekiston farzandi ekanligimni hech kim bilmasdi. O'zbeklardan birinchi marta ikki karra paralimpiada chempioni sifatida g'oliblik shohsupasiga ko'tarilganimda O'zbekiston davlat bayrog'i ko'tarilmadi, madhiyasi ijro etilmadi. Menga rosa alam qildi, ko'kragimni to'ldirib yig'lagim, hayqirgim keldi, ammo ovozim chiqmadi, dardim ichimda qoldi. Endilikda ahvol butunlay boshqacha. O'zbekiston mustaqilligi sharofati bilan boshqa sohalar qatori jismoniy tarbiya va sport ishlariga juda katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, o'zbek milliy kurashining jahon miqyosida o'tkazilayotgan musobaqalar dasturidan mustahkam o'rin olgani, "Halol!", "Yonbosh!" degan o'zbek tilidagi atamalarning baralla aytilishi odamni nihoyatda to'lqinlantiradi. Ana shunday paytda Vatanimiz vakillarining qo'lga kiritgan yutuqlari bilan quvonmay bo'ladimi? Bular el-yurtimiz ozodligi, obodligi, erkinligi va hurligi nishonasidir. Shuning uchun ham o'tib ketgan ajdodlarimiz ruhlarini shod etib, yurtimizga munosib vorislarni yetkazib berish insoniy burchimizdir.

Lavhamiz qahramonining ustoz, murabbiylik borasidagi xayrli va savobli ishlari har qancha tahsinga sazovor. Shogirdlaridan uch kishi kurash bo'yicha mamlakat chempionligini qo'lga kiritgan bo'lsa, yana shunchasi faxrli 2-o'rin sohibi bo'lgan.

Mana, 29 yildirki, Jo'rayevlar oilasida sentabr oyi qo'shaloq bayramni nishonlash bilan boshlanadi. Mustaqillik bayramining ertasi oila sardorining tavallud kuni. Bu yil 2-sentabrda Po'lat Jo'rayev tabarruk 80 yoshni qarshiladi.

Shu munosabat bilan saksondan mardona sakrab, to'qson bilan to'qnashish, yuz bilan yuzslashish maqsadida yaxshi niyat bilan sadoqatli rafiqasi, 2 o'g'il, 2 qizi, 10 nafar nabira, 8 abirasi, kelin-kuyovlari, shogirdlari, shuningdek, shahrimizning Qoraqamish dahasi "Beshqo'rg'on-3" mahallasidagi qo'ni-qo'shni, yaqin do'st-qadrdonlari ardog'ida shukronalik bilan yashab, keksalik gashtini surayotgan jasoratli sport ustasi, O'zbekistonda ilk bor ikki karra paralimpiya chempioni bo'lgan milliy kurashchilar sardori, ismi jismiga monand muhtaram Ustoz, murabbiy Po'lat Jo'rayevga mustahkam sog'liq, uzoq umr, oilaviy baxt-saodat tilaymiz!

Iskandar RAHMON,
Qurolli Kuchlar faxriysi,
O'zbekiston Yozuvchilar va Jurnalistlar ijodiy uyushmalari a'zosi

BIOLOGIYA+TARIX
yangicha saboq usuli

O'quvchilarga yuqori sinfda biologiya hamda botanika fanlari o'rgatiladi. Shu bilan birga, tarix fanini o'qitish ham yuqori sinfga qadam qo'yilganda boshlanadi. "Bio" — "hayot", "logos" — "fan" degan ma'noni anglatadi. Demak, biologiya hayot haqidagi fan ekan. Tarix esa shu hayot bilan bog'liq o'tmishni o'rganadi. Masalan, neolit davridagi turmushdan tortib, o'sha davrdagi jonzotlarning ichki va tashqi tuzilishi, yashashi, oziqlanishi va shu kabi hayotiy jarayonlar o'qitilishi ikki fanni uzviy bog'laydi. Tarix darslarida kishilar jonzotlarga qanday munosabatda bo'lishgani, birgalikda qay tarzda hayot kechirishgani, ulardan nima maqsadda foydalanishgani va zararlilaridan qay tariqa himoyalanishgani ham o'rgatiladi.

9-sinf "Jahon tarixi"dan "XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Hindiston" mavzusi o'tilganda, o'quvchilarga Buyuk Britaniya tomonidan mustamlaka yurt dehqonlarining ezilishi, milliy ozodlik uchun kurash, Bengaliyani bo'lishdan maqsad va shu kabi tushuncha hamda voqealarni singdiramiz. Davlatlar joylashuvi bo'yicha beriladigan savollar natijasida o'quvchilarning xarita bilan ishlash ko'nikmasi oshadi. O'troq aholining dehqonchilik mashg'ulotlari (ekinlar, unuvchan o'simliklar) to'g'risida esa o'g'il-qizlar o'z tasavvuri va bilimlarini yozma tarzda ifodalashi talab etiladi. Shu tariqa integratsiyalashgan mashg'ulot olib boriladi.

Darsda noa'nanaviy ma'ruza-suhbat usulini tashkil etib, test tarqatmalari, krossvord kabi detallardan foydalansa bo'ladi. Bunda o'qituvchi avval ma'lumotlarni taqdim etadi: "U Buyuk Britaniya mustamlakasi edi. Davlat vitse-qirol boshchiligidagi amaldorlar va politsiya yordamida boshqarilar edi... 1886-yili to'qimachilik sanoatida 95 fabrika bor edi. Konlar soni, temiryo'l tarmoqlari ko'paydi... Asosiy sanoat korxonalari dengiz bo'yi port shaharlari yaqinida edi. Dehqonchilikda agrotexnika madaniyati pastligicha qolaverdi. 20 foiz sug'orish inshooti bor edi. Choy, kanop, paxta yetishtirilgan. Bengaliya — kanop, Assam — choy, Bombey va Markaziy Hindiston — paxta, Panjob — bug'doy yetishtirgan...".

O'quvchilar mana shunga o'xshash ma'lumotlarga tayanib, matndagi tarix hamda botanika va biologiyaga oid qismlarni ajratishadi. Keyin o'qituvchi tomonidan tarqatilgan test topshiriqlariga javob berishadi. O'g'il-qizlarning ishi rag'batlantirilib, baholanadi.

Mohiyaxon RAHMONOVA,
O'zbekiston tumanidagi 16-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Darsning integratsiyali tashkil qilinishi ham fanga oid, ham boshqa fanlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Bunday darslar ilgari o'tilgan mavzular mazmunini o'quvchilar yodida qayta tiklash, bolalar bilimini ma'lum bir tizimga solish, ayrim tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

Integratsiyali darslar — fikrlashni o'stiradi

Sinab ko'ring

Quyidagi topshiriqlar bilan tabiat, ona tili, texnologiya fanlarini integratsiyalash mumkin: "Quyosh — ulkan osmon jismi" (4-sinf, Tabiatshunoslik) mavzusiga oid integratsiyalashgan topshiriq. "Quyosh — ulkan osmon jismiga oid ma'lumotlarni 6 ta kelishikni qo'llagan holda yoritib bering. Yozgan ma'lumotlaringizdan foydalanib, quyosh applikatsiyasini yarating" (Javoblar sariq rangli qog'ozga yoziladi).

1. Bosh kelishik: Quyosh — bizga eng yaqin yulduz.

2. Qaratqich kelishik: Quyoshning yoshi taxminan 5 milliard yoshda.

3. Tushum kelishigi: Quyoshni futbol koptogi deb tasavvur qilsak, Yerning kattaligini bitta mosh donasiga qiyoslash mumkin.

4. Jo'nalish kelishigi: Quyoshga o'xshash holat Yerda uchraydi — bu olovdir.

5. O'rin-payt kelishigi: Quyoshda portlashlar bo'ladi.

6. Chiqish kelishigi: Quyoshdan chiqqan nur Yergacha 8 daqiqada yetib keladi.

O'quvchilar yozgan ma'lumotlaridan Quyosh applikatsiyasini yasaydi.

Tabiat, matematika hamda bu fanlarga uzviy ravishda bog'liq bo'lgan iqtisod va tejamkorlikka oid tushunchalarni shakllantiruvchi quyidagicha topshiriq yaratish mumkin: (Tabiat 3-sinf "Sabzavotlar" mavzusiga doir). Hovlingizning eni 20 m va bo'yi 8 m bo'lgan maydoni bo'sh turibdi. Siz uyingizdagi kundalik ishlatiladigan sabzavotlar ehtiyojidan kelib chiqib, ekinzor yarating". Bunda o'quvchi o'zining shaxsiy fikridan kelib chiqib, savolga javob topadi. E'tiborli jihati, sinfdagi o'quvchilarning javoblari turlicha bo'ladi. Topshiriqni bajarish orqali tabiat fanidan "Sabzavotlar" mavzusi ham mustahkamlanadi. Ekinzor yaratish orqali esa matematika fanidan shaklning perimetri, yuzasi va ulushini topishga oid DTSning bir nechta talablari bajariladi. Ehtiyoj yuzasidan yondashuv esa o'z navbatida iqtisod va tejamkorlikka oid tasavvurlarini ham shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda integratsiyalashgan o'qitishni tashkil etish — kelajakda zamon talablariga javob bera oladigan, turli sohalar bo'yicha yuksak bilimga ega, yaratuvchanlikka moyil kadrlar tayyorlash uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Husniya ALLABERDIYEVA,
Nurobod tumanidagi 11-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Aziz abituriyentlar!

Institutimizda tahsil olish istagida bo'lgan abituriyentlardan bakalavriat kunduzgi ta'lim yo'nalishi uchun 42609 ta, sirtqi ta'lim yo'nalishi uchun 32636 ta, magistratura mutaxassisliklari uchun 553 ta hujjatlar qabul qilindi. Bu o'tgan yilgidan ancha baland ko'rsatkich.

2020-2021-o'quv yilida institutimizning kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha 24 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga jami 2025 nafar, magistratura mutaxassisliklari uchun 88 nafar talabalarni qabul qilish rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda pandemiya munosabati bilan oliy ta'limga kirish imtihonlari muddati va tartibi har yilgidan tubdan o'zgardi. Bu sizni va xalqimiz salomatligini o'ylab qilingan sa'y-harakatdir. Umid qilamanki, bunday vaziyatni barcha birdek his etib, to'g'ri tushunmoqda. Mana, kechadan boshlab test sinovlari boshlandi.

Institutimizda abituriyentlar, ularning ota-onalari uchun bevosita qabul komissiyasi huzurida "Axborot-maslahat markazi" va tezkor javob berish uchun "Call center" xizmati yo'lga qo'yilgan. (tel: (69) 234-05-64, 234-29-70, 234-05-23, 234-29-63, 234-07-82.

Institut rasmiy veb-saytida (www.nammqi.uz) "ABITURIYENT" nomli interaktiv xizmat tashkil etilgan. Unda qabulga oid barcha targ'ibot materiallari joylashtirilgan.

Siz, albatta, shu kunga qadar kirish imtihonida ishtirok etishingiz uchun belgilangan manzil va imtihon muddati bilan tanishib chiqdingiz. Imtihonga borishda o'zingiz bilan DTM ruxsatnomangiz va shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat, ya'ni pasportingizni olishni yodingizdan chiqarmang!

Qadrli abituriyentlar! Unutmang, sizlar buyuk ajdodlar Amir Temur, Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi daholarning avlodlarisiz. Ilm yo'lidagi mashaqqatli mehnatlaringiz albatta o'z samarasini beradi. Ota-onangiz, yaqinlaringiz, xalqingiz ishonchini oqlab, ustozlaringizdan olgan bilimlaringizni ro'yobga chiqarasiz deb umid qilaman.

Qalbida ezgu tilaklari bisyor barcha abituriyentlarga OMAD YOR bo'lsin!

Sharifjon ERGASHEV,
Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

YUQORI MALAKALI KADRLARNI ISHGA TAKLIF QILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida (TDPU) ta'lim jarayonini sifatli tashkil qilish va raqobatbardosh pedagogik kadrlarni tayyorlash uchun qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

TDPU jahonning nufuzli universitetlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida yangi ta'lim yo'nalishlarini ochmoqda.

Universitetning tarkibiy tuzilmasi tubdan o'zgartirilishi munosabati bilan 2020/2021-o'quv yiliga kafedralardagi vakant lavozimlarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, eng munosib va qobiliyatli professor-o'qituvchilarni asosiy ishga qabul qilish maqsadida tanlab olish

E'LON QILINADI

	Kafedra	Vakant shtat birligi
	Xorijiy tillar kafedrasi	1 o'qituvchi
	Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi	2 assistent
	Axborot texnologiyalari kafedrasi	2 dotsent
	Matematika kafedrasi	1 o'qituvchi
	Pedagogika kafedrasi	1 dotsent, 2 o'qituvchi
	Psixologiya kafedrasi	2 professor, 4 dotsent, 6 o'qituvchi, 2 assistent
	Logopediya kafedrasi	1 dotsent, 5 o'qituvchi
	Oligofrenopedagogika kafedrasi	4 o'qituvchi
	Surdopedagogika kafedrasi	1 professor
	Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasi	1 dotsent, 1 katta o'qituvchi, 2 o'qituvchi
	Maktabgacha ta'lim kafedrasi	1 dotsent, 1 o'qituvchi (rus)
	Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasi	1 o'qituvchi (rus)
	Musiqiy ta'lim kafedrasi	1 professor, 1 dotsent, 1 o'qituvchi, 1 assistent, 1 laborant
	Rus tili kafedrasi	2 o'qituvchi
	Rus adabiyoti kafedrasi	2 o'qituvchi
	Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari kafedrasi	2 assistent
	Qozoq tili va adabiyoti kafedrasi	2 o'qituvchi
	Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi	2 assistent

Nomzodga qo'yiladigan malaka talablari:

— O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha chiqargan Farmon, Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va o'quv jarayonining o'quv-me'yoriy hujjatlari yuritilishidan xabardor bo'lishi zarur;

— Talabgorning ilmiy darajasi, ilmiy unvonining mavjudligi;

— O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilgari surgan 5 ta tashabbusining mazmun-mohiyatini bilishi;

— Talabgorning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mashg'ulligi, keyingi yillarda chop qilingan ishlari (materiallar ko'rsatiladi);

— Xorijiy tillarni bilish darajasi (tegishli sertifikatlar taqdim etiladi) va undan mashg'ulotlar jarayonida foydalana olish malakasi;

— Kompyuter texnikasidan foydalana olish va ta'lim jarayonida qo'llay olishi, masofaviy ta'lim hamda kredit-modul tizimi haqidagi ma'lumotlarga egaligi;

— Xorijiy mamlakatlar OTMlarini tamomlagan yoki xorijda malaka oshirish va stajirovkadan o'tgan holatlar alohida e'tiborga olinadi.

— talabgorlarning shaxsiy sifatlariga e'tibor qaratiladi:

— muzokara olib borish qobiliyati;

— yetakchilik fazilatlarining mavjudligi, shaxslararo munosabatlarni o'rnatish qobiliyati, tashkilotchilik va mas'uliyatlilik;

— yakka tartibda va jamoada ishlash, nizolarni hal qilish qobiliyati;

— tashabbuskorlik, ijodkorlik, stressga chidamlilik, korrupsiyaga chidamsizlik, ta'limga fidoyilik qobiliyatlari.

Ma'lumot uchun:

Tel/faks: (71) 276-77-14, 276-76-51.
E-mail: tgpu_info@edu.uz
info@tdpu.uz; www.tdpu.uz
Tg: https://t.me/TDPU_uz ; Fb: https://www.facebook.com/nizamitdpu/
Insta: https://www.instagram.com/nizomiytdpu/
Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy.
Mo'ljal: metroning Chilonzor bekati, avtobuslar: 99, 131, 34, 116, 78, 18, 86, 128A.

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:
O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4303. Tiraji 8339.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:
qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416

"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:
100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zA yakuni — 21.30 Topshirildi — 21.00 1 2 3 4 5 6